


II
2026

ELECTRONIC EDUCATION

SCIENTIFIC
JOURNAL



TAHRIRIYAT

Bosh muharrir

Laqayev Saidaxmad Norjigitovich
fizika-matematika fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o’rinbosari

Ro’ziyev Rauf Axmadovich
fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir

Mirsanov Uralboy Mukhammadiyevich
pedagogika fanlari doktori DSc, professor

Editor-in-Chief

Saidaxmad Norjigitovich Lakayev
doctor of physical and mathematical sciences,
academician

Deputy Editor-in-Chief

Ruziyev Raup Akhmadovich
Candidate of Physical and Mathematical Sciences,
Associate Professor

Responsible editor

Mirsanov Uralboy Mukhammadiyevich
doctor of Pedagogical Sciences DSc, Professor

TAHRIRIYAT A’ZOLARI

- Kalonov Muxiddin Baxriddinovich** - iqtisodiyot fanlari doktori, professor. (O’zbekiston)
- Xujjiyev Sodiq Oltiyevich**- biologiya fanlari nomzodi, dotsent. (O’zbekiston)
- Ibragimov Alimjon Artikbayevich**-fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent. (O’zbekiston)
- Suvonov Olim Omonovich**- texnika fanlari nomzodi, dotsent. (O’zbekiston)
- Yodgorov G’ayrat Ro’ziyevich**-fizika- matematika fanlari nomzodi, dotsent. (O’zbekiston)
- Nasirova Shaira Narmuradovna**-texnika fanlari doktori, professor. (O’zbekiston)
- O’tapov Toyir Usmonovich**-pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. (O’zbekiston)
- Xudoyorov Shuxrat Jumaqulovich**- fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent. (O’zbekiston)
- Djurayev Risbay Xaydarovich**- akademik (O’zbekiston)
- Negmatov Sayibjon Sodiqovich**- akademik (O’zbekiston)
- Aripov Mersaid Mirsiddikovich**- fizika-matematika fanlari doktori, professor. (O’zbekiston)
- Turabjanov Sadritdin Maxamatdinovich** - texnika fanlari doktori, akademik. (O’zbekiston)
- Raximov Isomiddin Sattarovich**- fizika-matematika fanlari doktori, professor. (Malayziya)
- Shariy Sergey Petrovich**- fizika-matematika fanlari doktori, professor. (Rossiya)
- Ibraimov Xolboy**- pedagogika fanlari doktori, akademik. (O’zbekiston)
- Yunusova Dilfuza Isroilovna**- pedagogika fanlari doktori, professor. (O’zbekiston)
- Aloyev Raxmatillo Djurayevich**- fizika-matematika fanlari doktori, professor. (O’zbekiston)
- Abdullayeva Shaxzoda Abdullayevna**- pedagogika fanlari doktori, professor. (O’zbekiston)
- Norov Abdusaid Murodovich** – texnika fanlari bo’yicha falsafa doktori, dotsent (O’zbekiston).
- Yuldoshev Ismoil Abriyevich** – pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori, dotsent (O’zbekiston)
- Mo’minov Bahodir Boltayevich**- texnika fanlari doktori, professor. (O’zbekiston)
- Rosmayati Mohemad** - professor. (Malayziya)
- Zainidin K. Eshkuvatov** – fizika-matematikafanlari doktori (DSc). (Malayziya)
- Muhammad Suzuri bin Hitam** - professor. Malayziya)
- Amiza binti Mat Amin**- professor. (Malayziya)
- Korshunov Igor Lvovich**- texnika fanlari nomzodi, dotsent. (Rossiya)
- Kolbanyov Mixail Olegovich**- texnika fanlari doktori, professor. (Rossiya)
- Verzun Natalya Arkadyevna**- texnika fanlari nomzodi, dotsent. (Rossiya)
- Stelmashonok Yelena Viktorovna**- iqtisod fanlari doktori, professor. (Rossiya)
- Tatarnikova Tatyana Mixaylovna** - texnika fanlari doktori, professor. (Rossiya)
- Alekseyev Vladimir Vasilyevich** - texnika fanlari doktori, professor. (Rossiya)
- Satikov Igor Abuzarovich** – fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent. (Belarus)
- Boyarshinova Oksana Aleksandrovna** – fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent. (Belarus)
- Makarenya Sergey Nikolayevich** – texnika fanlari nomzodi, dotsent. (Belarus)
- Sednina Marina Aleksandrovna** – texnika fanlari nomzodi, dotsent. (Belarus)
- Xolmurodov Abdulhamid Erkinovich**- fizika-matematika fanlari doktori, professor. (O’zbekiston)
- Lutfillayev Maxmud Xasanovich**- pedagogika fanlari doktori, professor (O’zbekiston)
- Ergasheva Gulruksor Surxonidinovna** - pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent. (O’zbekiston)
- Maxmudova Dilfuza Mileyevna** – pedagogika fanlari doktori, professor (O’zbekiston)
- Xudjayev Muxiddin Kushshayevich** – texnika fanlari doktori, dotsent (O’zbekiston).
- Ibragimov Abdusattar Turgunovich** – texnika fanlari doktori, dotsent (O’zbekiston).

Karaxonova Oysara Yuldoshevna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston).

Kurbaniyazova Zamira Kalbaevna- pedagogika fanlari doktori, dotsent. (O'zbekiston)

Jabbarov Oybek Rakhmanovich- fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (O'zbekiston).

Kabiljanova Firuza Azimovna-fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent. (O'zbekiston)

Kalonova Mohigul Baxriddinovna-iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori. (O'zbekiston)

Baxodirova Umida Baxodirovna-pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent. (O'zbekiston)

Sharipov Ergash Oripovich-pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent. (O'zbekiston)

Xamroyeva Dilafro'z Namozovna – fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent. (O'zbekiston).

Toxirov Feruz Jamoliddinovich – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)

Isroilova Lola Sunnatovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent. (O'zbekiston)

Otaqulova Durdona Raxmonovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)

Ruziyeva Dilafruz Raupovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)

Jo'rakulov Tolib Toxirovich- texnik muharrir

© Mazkur jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasi rayosatining 2022-yil 28-fevraldagi 312/6 qaroriga asosan Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Adress: Navoiy sh., Janubiy ko'chasi, 1-A uy. (1-A, South Street, Navoi city) URL:
<http://www.el-nspi.uz>

MUNDARIJA

Aniq fanlarda axborot texnologiyalari

Saidova D. E., Shodmonova D. G’. GCP VA BIGQUERY MUHITIDA TA’LIM ANALITIKASI HAMDA KOMPETENSIYALARNI ANIQLASH USULLARI		7
Himmatov Sh. O. TALABALARNING AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA FRILANSERLIKKA OID KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA’LIMDAN FOYDALANISH USULI		22
Mavlanova X. K. MASOFAVIY TA’LIM SHAKLIDA TAHSIL OLUVCHI TALABALARNING MUSTAQIL TA’LIMINI TASHKIL ETISHGA MO’LJALLANGAN PLATFORMADAN FOYDALANISH		31
Xotamova A. O. TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA STEAM TA’LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA		39

Tabiiy fanlarda axborot texnologiyalari

Baychayev F. X. ELEKTROMAGNIT INDUKSIYA HODISASINI “PHYWE MEASURE” DASTURIY TA’MINOT YORDAMIDA O’RGANISH		49
Mamajonov Sh. A., Odilxo’jazoda N. B. KIMYO FAN O’QITUVCHILARINING RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISHDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR		62
Baxodirova U. B. OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA BIOLOGIYA FANLARIDAN LABORATORIYA MASHG’ULOTLARNI RAQAMLI TA’LIM VOSITALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH USULI		77

Ijtimoiy-gumanitar fanlarda axborot texnologiyalari

Abayev N. A. TALABALARNING SUN’IY INTELLEKT VOSITALARIGA BO’LGAN QARAMLILIGINI OLDINI OLISH MUAMMOLARI		86
Abdugabbarov A., Nurillayev A. ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA SUZISH BO’YICHA MASHG’ULOTLARNI O’TKAZISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH		95

СОДЕРЖАНИЕ

<i>Информационные технологии в точных науках</i>	
Саидова Д. Э., Шодмонова Д. ОЦЕНКА ЗНАНИЙ, НАВЫКОВ И КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ТЕХНОЛОГИЙ GOOGLE CLOUD PLATFORM (GCP) И BIGQUERY	7
Химматов Ш. О. МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ ДЛЯ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В СФЕРЕ ФРИЛАНСА В ОБЛАСТИ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ	22
Мавланова Х. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПЛАТФОРМЫ ДЛЯ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ, ОБУЧАЮЩИХСЯ В ФОРМАТЕ ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ	31
Хотамова А. О. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ STEAM-ТЕХНОЛОГИИ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА	39
<i>Информационные технологии в естественных науках</i>	
Байчаев Ф. Х. ИЗУЧЕНИЕ ЯВЛЕНИЯ ЭЛЕКТРОМАГНИТНОЙ ИНДУКЦИИ С ПОМОЩЬЮ ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ “PHYSICS MEASURE”	49
Мамажонов Ш. А., Одилхужазода Н. ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ УЧИТЕЛЯМИ ХИМИИ	62
Бахадирова У. Б. МЕТОД ОРГАНИЗАЦИИ ЛАБОРАТОРНЫХ ЗАНЯТИЙ ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ ДИСЦИПЛИНАМ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ	77
<i>Информационные технологии в социально-гуманитарных науках</i>	
Абаев Н. ПРОБЛЕМЫ ПРОФИЛАКТИКИ ЗАВИСИМОСТИ СТУДЕНТОВ ОТ ИНСТРУМЕНТОВ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА	86
Абдугаббаров А., Нуриллаев А. СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПРОВЕДЕНИЯ ТРЕНИРОВОЧНЫХ ЗАНЯТИЙ ПО ПЛАВАНИЮ НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ	95

CONTENT

<i>Information technologies in exact sciences</i>	
Saidova Dilfuza, Shodmonova Diyora ASSESSING STUDENTS’ KNOWLEDGE, SKILLS, AND COMPETENCIES USING GOOGLE CLOUD PLATFORM (GCP) AND BIGQUERY TECHNOLOGIES	7
Khimmatov Shokhrukh METHODOLOGY FOR USING SELF-DIRECTED LEARNING TO DEVELOP STUDENTS’ COMPETENCIES FOR FREELANCING IN THE INFORMATION TECHNOLOGY SECTOR	22
Mavlanova Khafiza USE OF THE PLATFORM FOR ORGANIZING INDEPENDENT LEARNING OF STUDENTS STUDYING IN DISTANCE EDUCATION	31
Khotamova Aziza USING STEAM EDUCATIONAL TECHNOLOGY TO DEVELOP STUDENTS’ PROFESSIONAL COMPETENCE A PEDAGOGICAL PROBLEM	39
<i>Information technologies in natural sciences</i>	
Baychaev Fazliddin STUDYING THE PHENOMENON OF ELECTROMAGNETIC INDUCTION USING THE “PHYWE MEASURE” SOFTWARE	49
Mamajonov Shuhrat, Odilkhujazoda Nigorakho CHALLENGES AND SOLUTIONS IN THE EFFECTIVE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES BY CHEMISTRY TEACHERS	62
Bakhodirova Umida METHOD FOR ORGANIZING LABORATORY SESSIONS IN BIOLOGICAL SCIENCES AT HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS BASED ON DIGITAL EDUCATIONAL TOOLS	77
<i>Information Technologies in Social Sciences and Humanities</i>	
Abaev Nurlybay CHALLENGES IN PREVENTING STUDENT DEPENDENCE ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE TOOLS	86
Abdugabbarov Asilbek, Abdukholiq Nurillayev IMPROVING THE METHODOLOGY OF CONDUCTING SWIMMING TRAINING SESSIONS BASED ON MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES	95

Aniq fanlarda axborot texnologiyalari

GCP VA BIGQUERY MUHITIDA TA’LIM ANALITIKASI HAMDA KOMPETENSIYALARNI ANIQLASH USULLARI

Saidova Dilfuza Ergashovna

Qarshi davlat universiteti, O‘zbekiston

e-mail: saidova.d1989@gmail.com

ORCID: 0009-0001-6932-3284

Shodmonova Diyora G‘ayrat qizi

Qarshi davlat universiteti talabasi, O‘zbekiston

e-mail: shodmonovadiyora661@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy tadqiqotda Google App Cloud platformalari asosida talabalarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini baholash jarayonining nazariy-metodik asoslari, pedagogik tasniflari, funksional imkoniyatlari hamda amaliy mexanizmlari keng tahlil qilingan. Mazkur platformalarning ta’lim jarayonini raqamlashtirishdagi o‘rni, baholash jarayonining diagnostik, formativ va summativ bosqichlaridagi roli, shuningdek, kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim modeli bilan integratsiyasi chuqur ilmiy yondashuv bilan tadqiq qilinadi. Tadqiqotda Google Forms, Classroom, Sheets, Sites, Meet va boshqa integratsiyalashgan xizmatlarning baholash jarayoniga ta’siri tizimli yondashuv asosida o‘rganilgan.

Tayanch so‘zlar: Google App Cloud, raqamli baholash, diagnostika, formativ baholash, kompetensiya, faoliyat jarayoni, portfoliolar, monitoring.

ОЦЕНКА ЗНАНИЙ, НАВЫКОВ И КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ТЕХНОЛОГИЙ GOOGLE CLOUD PLATFORM (GCP) И BIGQUERY

Саидова Дилфуза Эргашовна

Каршинский государственный университет, Узбекистан

Шодмонова Диёра

Каршинский государственный университет, студент, Узбекистан

Аннотация: В данном научном исследовании проводится всесторонний анализ теоретико-методических основ, педагогических классификаций, функциональных возможностей и практических механизмов оценивания знаний, навыков и компетенций студентов на основе платформ Google App Cloud. Рассматривается роль данных платформ в цифровизации образовательного процесса, их значение на диагностическом, формативном и суммативном этапах оценивания, а также интеграция с компетентностной моделью обучения. В исследовании системно изучено влияние интегрированных сервисов Google – таких как Google Forms, Classroom, Sheets, Sites, Meet и др. – на процесс оценивания.

Ключевые слова: Google App Cloud, цифровое оценивание, диагностика, формативное оценивание, компетенция, процесс деятельности, портфолио, мониторинг.

ASSESSING STUDENTS’ KNOWLEDGE, SKILLS, AND COMPETENCIES USING GOOGLE CLOUD PLATFORM (GCP) AND BIGQUERY TECHNOLOGIES

Saidova Difuza

Qarshi State University, Uzbekistan

Shodmonova Diyora

Karshi State University, student, Uzbekistan

Abstract: This research study provides an in-depth analysis of the theoretical and methodological foundations, pedagogical classifications, functional capabilities, and practical mechanisms of assessing students' knowledge, skills, and competencies using Google App Cloud platforms. The role of these platforms in the digitalization of the educational process, their contribution to diagnostic, formative, and summative assessment stages, as well as their integration with competency-based education models, is examined with scientific rigor. The study systematically explores the impact of integrated Google services—such as Google Forms, Classroom, Sheets, Sites, Meet, and others—on the assessment process.

Keywords: Google App Cloud, digital assessment, diagnostics, formative assessment, competency, activity process, portfolios, monitoring.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida talabalar bilimi, ko‘nikmasi va kompetensiyalarini baholash jarayoni nafaqat o‘qitish samaradorligini aniqlash, balki kelajak kadrlarining kasbiy tayyorgarlik darajasini belgilashda ham muhim rol o‘ynaydi. An’anaviy baholash usullari (testlar, og‘zaki so‘rovlar, yozma ishlar) ko‘pincha subyektivlik, cheklangan ma’lumotlar hajmi va real vaqt rejimida tahlil qilish imkoniyatining yo‘qligi kabi kamchiliklarga ega. Bugungi kunda raqamli transformatsiya sharoitida katta hajmdagi o‘quv ma’lumotlarini qayta ishlash va ular asosida ishonchli xulosalar chiqarish uchun bulutli texnologiyalardan foydalanish dolzarb masalaga aylandi.

Google Cloud Platform (GCP) zamonaviy bulutli infratuzilma bo‘lib, u ma’lumotlarni saqlash, qayta ishlash va tahlil qilish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ushbu platformaning muhim komponenti – BigQuery texnologiyasi esa serverless ma’lumotlar ombori (data warehouse) sifatida milliardlab yozuvlarni sekundlar ichida SQL-so‘rovlar orqali tahlil qilish imkonini beradi. Aynan shu xususiyatlar GCP va BigQueryni ta’limda to‘plangan baholash natijalari, test javoblari, loyiha faolligi va boshqa kompetensiyaviy ko‘rsatkichlarni chuqur o‘rganish uchun samarali vositaga aylantiradi [1].

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – Google Cloud Platform va BigQuery texnologiyalaridan foydalanib talabalar bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini baholashning metodik asoslarini ishlab chiqish hamda bunday tizimning amaliy imkoniyatlarini tahlil qilishdir. Maqolada GCPning arxitekturasi, BigQueryda

baholash ma’lumotlarini modellashtirish, real vaqt rejimida monitoring qilish va vizualizatsiya kabi bosqichlar ko‘rib chiqiladi. Taklif etilayotgan yondashuv an’anaviy baholash tizimlariga nisbatan shaffoflik, obyektivlik, masshtablanuvchanlik va ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish kabi afzalliklarni taqdim etadi.

Natijada, GCP va BigQuery asosida qurilgan baholash tizimi nafaqat talabalar o‘zlashtirishining aniq manzarasini yaratadi, balki o‘qituvchilar va boshqaruv xodimlari uchun o‘quv jarayonini takomillashtirish bo‘yicha strategik qarorlar qabul qilishda ishonchli vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Bulutli texnologiyalarni ta’limga, xususan, baholash tizimlariga tatbiq etish masalalari bir qator tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Masud va boshqalar bulutli hisoblashdan foydalanadigan elektron ta’lim tizimining arxitekturasini ishlab chiqqan bo‘lib, unda ta’lim imkoniyatlari va bulut xizmatlari birlashtirilgan. Gusev va boshqalar esa e-assessment tizimining SOA (Service Oriented Architecture) arxitekturasini yaratgan bo‘lib, bu arxitektura yuqori darajadagi elastiklik va barqaror unumdorlikni ta’minlashga qaratilgan. Ko‘plab tadqiqotlar bulutli muhitda baholash tizimlarini joriy etishning ijobiy tomonlarini – manbalarga masofadan kirish imkoniyati, kengayuvchanlik (scalability) va iqtisodiy samaradorlikni ta’kidlaydi. Biroq, aynan Google Cloud Platform’ning BigQuery kabi kuchli tahliliy vositalarini ta’limiy kompetensiyalarni baholash tizimlariga integratsiya qilish bo‘yicha tizimli tadqiqotlarning yetishmasligi seziladi [2].

Google BigQuery – bu Google Cloud Platform-ning serverless ma’lumotlar ombori (data warehouse) xizmati bo‘lib, u katta hajmdagi ma’lumotlar ustida SQL-so‘rovlar yordamida sekundlar ichida tahlil o‘tkazish imkonini beradi. BigQueryning asosiy texnik afzalliklari qatoriga uning Dremel nomli masshtablanuvchi tahlil tizimi asosidagi arxitekturasi, ma’lumotlarni ustunli (columnar) saqlash formati va kuchli parallellashtirish mexanizmlari kiradi [3].

2025-yilda o‘tkazilgan qiyosiy tahlillarga ko‘ra, yetakchi bulutli ma’lumotlar omborlari – BigQuery, AWS Redshift, Azure Synapse va Snowflake – o‘rtasida jiddiy raqobat mavjud. Xususan, ClickHouse tomonidan 2025-yil dekabrda e’lon qilingan kompleks benchmarking (qiyosiy sinov) natijalariga ko‘ra, 1 mlrd, 10 mlrd va 100 mlrd qatorlardan iborat ma’lumotlar to‘plami ustida analitik yuklamalarni bajarishda BigQuery yuqori tezlik ko‘rsatgan, biroq narx-navo ko‘rsatkichlari bo‘yicha boshqa tizimlardan (masalan, ClickHouse Cloud) ortda qolgan (ClickHouse, 2025). Estuary 2025 ma’lumotlar ombori benchmarkiga ko‘ra, BigQuery “tez ishlaydi, ammo xarajati o‘zgaruvchan” deb baholangan, Snowflake esa “barqaror har tomonlama” variant sifatida ko‘rsatilgan. Shuningdek, BigQuery Advanced Runtimeni qo‘llash orqali ishlash unumdorligini 32% gacha oshirish mumkinligi aniqlandi, bu slotlar asosidagi narx modellarida jiddiy iqtisodiy samara beradi. BigQuery ML (BigQueryda Machine Learning) – tahlilchilarga SQL yordamida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’lumotlar omborida mashinaviy o‘qitish modellarini yaratish, o‘qitish va ulardan bashorat qilish imkonini beruvchi vosita bo‘lib, u ta’limda prognostik tahlil qilish uchun keng imkoniyatlar ochadi [4].

Google Cloud Platform va uning BigQuery xizmatini ta’lim sohasida qo‘llash bo‘yicha bir qator ilmiy ishlar mavjud. Xususan, 2017-yilda Lopez va boshqalar tomonidan “Google BigQuery for Education” nomli tadqiqotda Harvard va MIT tomonidan ishlab chiqilgan edx2bigquery ochiq manbali Python to‘plami yordamida yuzlab MOOC kurslarining bir necha terabaytlar hajmidagi o‘quvchi ma’lumotlarini BigQuery’da saqlash va tahlil qilish imkoniyatlari ko‘rsatilgan. Ushbu ishda BigQuery’ning “foydalanish qulayligi, ma’lumotlarni yuklashning soddaligi va real vaqtga yaqin interaktiv so‘rovlar” xususiyatlari alohida ta’kidlangan.

2025-yilda chop etilgan tadqiqotda esa Google Workspace (Google Classroom, Google Forms va Google Sheets) asosida qurilgan bulutli baholash tizimining talabalar raqamli kompetensiyalariga ta’siri eksperimental ravishda o‘rganilgan. Tajriba guruhida raqamli kompetensiya darajasi 60.2 ball dan 69.2 ballga (9.0 ballga)

oshgan. So‘rov natijalariga ko‘ra, talabalarning 87 foizi bulutli xizmatlarda ishlashga ishonchi komil ekanligini bildirgan. Mazkur tadqiqot dastlab, aynan BigQueryning analitik kuchidan foydalanmaydi, ya’ni unda ma’lumotlar kam miqdordagi jadvallarda saqlanadi va murakkab ko‘p o‘lchovli tahlillar o‘tkazilmaydi [4].

Google Classroomdan olingan log ma’lumotlarini BigQueryga yuklash va talabalarning topshiriqlar topshirish holatini vizualizatsiya qilish bo‘yicha yaponiyalik tadqiqotchilar tomonidan 2023-yilda amalga oshirilgan ish mavjud. Ushbu yondashuv o‘qituvchilarga sinfning umumiy tendensiyalarini tezda aniqlash imkonini bergan. Shuningdek, Indoneziyaning Telkom universitetida GCPning Cloud Storage, BigQuery va Cloud Function xizmatlaridan foydalanib, ma’lumotlarni yig‘ish va akkreditatsiya ko‘rsatkichlari asosida talabalar faoliyatini tahlil qiluvchi framework ishlab chiqilgan.

Talabalar raqamli kompetensiyalarini baholash bo‘yicha tizimli adabiyotlar tahlili ko‘plab muhim jihatlarni ochib beradi. Giganti ta’kidlaganidek, kompetensiyalarni baholashda, eng avvalo, ishonchli va haqiqiy o‘lchov vositalarini ishlab chiqish muhim. Bulutli baholash tizimlarining samaradorligi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bunday tizimlar talabalarning o‘z-o‘zini nazorat qilish, analitik fikrlash va ishonch kabi metakognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Bondarenko va hamkasblarining 2019-yilda nashr etilgan “Google Classroom as a Tool of Support of Blended Learning for Geography Students” maqolasida aralash (blended) ta’lim modelida Classroomdan foydalanish geografiya talabalari uchun sinf ichidagi va tashqarisidagi o‘qish jarayonini birlashtirish, real vaqt aloqasi, o‘quv faoliyatini monitoring qilish va baholash imkonini berganini ta’kidlaydi.

Bondarenko, Pakhomova va Lewoniewskiyning 2020-yilda chop etilgan “The didactic potential of virtual information educational environment” nomli maqolasida Google Classroom asosida tashkil etilgan virtual axborot-ta’lim muhiti

o‘quvchilarning individualizatsiyalangan o‘rganishini qo‘llab-quvvatlash, interaktivlik va ma’lumotga doimiy kirishni ta’minlash imkoniyatlarini beradi [4].

Bundan tashqari, o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini baholash sohasida raqamli baholash vositalarining rolini Tursinova Z. “Ta’lim sifatini oshirishda o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini baholash mexanizmlarining samaradorligini oshirish” tadqiqotida formativ baholash va reflektiv amaliyot raqamli platformalar orqali amalga oshirilishi o‘qituvchi kompetensiyasini baholash va rivojlantirishda samarali yechim ekanligi ta’kidlangan. Adabiyotlarda Google App Cloud platformalarining, xususan Google Classroom va Google Forms, ta’lim jarayonida baholash va o‘quv faoliyatini optimallashtirishdagi roli keng o‘rganilgan. Pardayev S. tomonidan e’lon qilingan “O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini onlayn nazorat qilishda Google Formsning imkoniyatlari” maqolasida Google Forms test vositasi sifatida ishlatilishi, avtomatlashtirilgan natijalar yig‘ilishi va o‘qituvchiga tez va samarali feedback berish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda Google Cloud Platform va Google BigQuery muhitida ta’lim analitikasi jarayonlarini tashkil etish hamda talabalar kompetensiyalarini aniqlash usullarini ishlab chiqish va baholash metodologiyasi qo‘llanildi. Tadqiqot aralash metodlar (mixed methods) yondashuvi asosida olib borilib, unda miqdoriy va sifat tahlili usullaridan kompleks foydalanildi.

Tadqiqotning birinchi bosqichida ta’lim analitikasi, bulutli texnologiyalar va kompetensiyaga asoslangan baholash tizimlari bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Xususan, zamonaviy raqamli ta’lim muhitlarida katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash, ularni saqlash va tahlil qilish imkoniyatlari o‘rganildi. Shuningdek, Google tomonidan taqdim etilgan bulutli xizmatlarning ta’lim jarayonidagi o‘rni tahlil qilindi.

Ikkinchi bosqichda tadqiqotning texnologik modeli ishlab chiqildi. Modelda talabalarning o‘quv faoliyatiga oid ma’lumotlar virtual ta’lim muhiti, LMS platformalari va onlayn baholash tizimlaridan yig‘ildi. Ushbu ma’lumotlar Google

BigQuery bazasiga yuklandi va strukturaviy ko‘rinishga keltirildi. Ma’lumotlarni yig‘ish jarayonida quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanildi:

- talabalar davomati;
- topshiriqlarni bajarish faolligi;
- test natijalari;
- amaliy mashg‘ulotlardagi ishtirok;
- forum va virtual hamkorlikdagi faollik;
- mustaqil ta’lim ko‘rsatkichlari.

Uchinchi bosqichda ma’lumotlarni qayta ishlash va analitik tahlil amalga oshirildi. Bunda SQL so‘rovlari, statistik tahlil usullari va ma’lumotlarni vizuallashtirish texnologiyalaridan foydalanildi. Kompetensiyalarni aniqlash uchun klasterlash, reytinglash va prognozlash metodlari qo‘llanildi. Talabalar faoliyati asosida ularning quyidagi kompetensiyalari baholandi:

- axborot-kommunikatsion kompetensiya;
- muammoli vaziyatlarni hal qilish kompetensiyasi;
- mustaqil ishlash kompetensiyasi;
- virtual hamkorlik kompetensiyasi;
- dasturlash va texnologik kompetensiyalar.

Tadqiqot davomida kompetensiyalarni aniqlashning matematik-statistik modeli ishlab chiqildi. Ushbu modelda talabaning umumiy kompetensiya darajasi turli indikatorlar asosida integral ko‘rsatkich sifatida hisoblandi.

Kompetensiyalarni baholashda quyidagi analitik yondashuvlardan foydalanildi:

descriptive analytics – mavjud holatni tavsiflash;

diagnostic analytics – o‘quv natijalariga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash;

predictive analytics – talabaning kelajakdagi natijalarini prognozlash;

prescriptive analytics – ta’lim jarayonini optimallashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

To‘rtinchi bosqichda tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Tadqiqotda oliy ta’lim muassasalarining talabalaridan iborat tajriba va nazorat guruhlari shakllantirildi. Tajriba guruhida Google Cloud asosidagi ta’lim analitikasi modeli qo‘llanildi, nazorat guruhida esa an’anaviy monitoring usullaridan foydalanildi. Tajriba natijalari statistik jihatdan taqqoslanib, samaradorlik darajasi aniqlandi.

Tahlil va natijalar: Google BigQuery asosida talabalar bilimini baholash tizimini ishga tushirish. *1-bosqich. Google Cloud loyihasini yaratish*

1. Brauzer orqali quyidagi manzilga kiring:

<https://console.cloud.google.com>

2. “Select a project” tugmasini bosing.


3. “New Project” ni tanlang.

4. Loyiha nomini kiriting (masalan: Student Assessment System).

5. “Create” tugmasini bosing.

6. Loyiha yaratilgach, uni faol (active) qiling.


Natija: Google Cloud muhiti ishlab turadigan loyiha tayyorlanadi.



1-rasm. BigQuery xizmatini faollashtirish


1. Cloud Console menyusidan: **Navigation Menu** ≡ → **BigQuery** → **Studio** yo‘liga o‘ting.
2. Agar birinchi marta kirilsa, tizim avtomatik tarzda BigQuery’ni yoqadi.

3. O‘ng panelda loyiha nomingiz ko‘rinadi:



2-rasm. Ma’lumotlar jadvalini tayyorlash (Google Sheets)

1. Google Sheets oching.
2. Quyidagi ustunlar bilan jadval yarating:




3-rasm. Google Sheets ma’lumotini BigQuery ga yuklash

1. BigQuery oynasida:


Explorer → Add data → Google Drive ni tanlang.

2. Google Sheets faylingizni belgilang.
3. Jadval nomi kiriting, masalan: “My project”



4. “Create table” tugmasini bosing.

Natija: Jadval BigQuery bazasiga muvaffaqiyatli joylandi.



1) **Lokal file**-Kompyuterimizga saqlangan talabalrning ma’lumotlarini(talaba ballarini) shu yerdan yuklaymiz

5-bosqich. Tahliliy SQL so‘rov yozish

BigQuery “Query Editor” oynasiga quyidagi SQL kod yoziladi:

WITH

stats AS (

SELECT

student_id,

AVG(score) AS avg_score,

MAX(score) - MIN(score) AS improvement,

STDDEV(score) AS score_std,

COUNT(*) AS attempts

FROM

`marine-atrrium-478816-r0`.student.student

GROUP BY student_id

)

SELECT

student_id,

avg_score,

improvement,

```
score_std,  
attempts,  
CASE  
  WHEN avg_score >= 70 AND improvement >= 10 THEN "Strong"  
  WHEN avg_score >= 50 THEN "Average"  
  WHEN improvement > 0 THEN "Improving"  
  ELSE "Needs Attention"  
END AS performance_category  
FROM  
  stats  
ORDER BY avg_score DESC;
```

6-bosqich. So‘rovni ishga tushirish

1. SQL kod yozilgach, yuqoridagi: ► **Run** tugmasini bosing.
2. Tizim avtomatik hisoblashni amalga oshiradi.
3. Pastki qismda “Query results” jadvali paydo bo‘ladi.


Natija:

- Talabalarning o‘rtacha ko‘rsatkichi
- Rivojlanish darajasi
- Toifalarga ajratilgan baho

7-bosqich. Natijalarni vizual ko‘rinishda tahlil qilish

1. “Visualization” bo‘limiga o‘ting.
2. Diagramma turi sifatida:
 - Column Chart yoki
 - Bar Chart tanlang.
3. X o‘qi – student_id Y o‘qi – avg_score

Natija: Talabalarning akademik ko‘rsatkichlari grafik ko‘rinishda aks etadi.



1. student_id(talabaning id)
2. avg_score (o‘rtacha ball)
3. improvement (o‘shish %)
4. std_score-talabaning testlardagi ballarining barqarorlik ko‘rsatkichi (standart og‘ish).
5. attempts (urinishlar soni)
6. performance_category (Excellent & Stable → Juda a’lo va barqaror, Above Average → O‘rtachadan yuqori, Average → O‘rtacha, Needs Attention → E’tibor talab qiladi)

7. Dastur kodi

8-bosqich. Natijalarni saqlash

1. “Save results” tugmasini bosish.
2. Natijani:
 - Yangi jadval sifatida saqlash yoki
 - CSV formatda yuklab olish mumkin.

Tizim ishlash algoritmi

1. Talaba baholari kiritiladi
2. BigQuery orqali statistik tahlil qilinadi
3. Toifa aniqlanadi
4. Natijalar grafik va jadval ko‘rinishda chiqariladi
5. Qarorlar qabul qilinadi

Mazkur dastur ishga tushirilgach:

- Talabalar bilim darajasi avtomatik baholanadi
- O‘qituvchi uchun tahliliy panel shakllanadi
- Har bir talaba individual rivojlanish darajasiga ko‘ra monitoring qilinadi

Bu tizim ta’lim jarayonida raqamli baholashni amalga oshirishning zamonaviy modelini yaratadi [6].

Mazkur amaliy ishda Google Cloud platformasi va BigQuery xizmati yordamida talabalarning bilim darajasini baholashga mo‘ljallangan oddiy va samarali tizim yaratildi. Ushbu tizim orqali talabalarning baholari avtomatik tarzda qayta ishlanib, ularning o‘rtacha ko‘rsatkichi, rivojlanish darajasi va umumiy samaradorligi aniqlab berildi.

Amaliy ish jarayonida talabalar natijalari asosida ularni turli toifalarga ajratish imkoniyati yaratildi. Bu esa o‘qituvchilarga qaysi talaba yaxshi natija ko‘rsatayotgani va qaysi talaba qo‘shimcha yordamga muhtoj ekanligini aniqlashda qulaylik yaratadi. Shuningdek, bu tizim baholash jarayonini tezlashtiradi va inson omili ta’sirini kamaytiradi.

Natijada, Google Cloud va BigQuery asosida ishlab chiqilgan ushbu baholash tizimi ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning samarali namunasi sifatida xizmat qiladi. Ushbu ishlanma kelgusida yanada rivojlantirilib, avtomatik baholash va sun’iy intellekt asosida tavsiya beruvchi tizimga aylantirilishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Google Cloud Platform (GCP) va BigQuery texnologiyalaridan ta’lim jarayonida foydalanish talabalar faoliyatini chuqur tahlil qilish, ularning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini aniq baholash imkonini beradi. Mazkur texnologiyalar katta hajmdagi ta’limiy ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash, natijalarni vizuallashtirish va tahliliy xulosalar chiqarishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

Shuningdek, bulutli texnologiyalar asosida yaratilgan analitik tizimlar individual yondashuvni shakllantirish, talabalar o‘zlashtirish darajasini monitoring qilish hamda ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi. BigQuery platformasi yordamida real vaqt rejimida ma’lumotlarni tahlil qilish imkoniyati ta’lim jarayonida muammolarni erta aniqlash va samarali pedagogik qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi.

Natijada, GCP va BigQuery texnologiyalarini ta’lim tizimiga integratsiya qilish raqamli ta’lim muhitini rivojlantirish, zamonaviy kompetensiyalarni baholash mexanizmlarini takomillashtirish hamda ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Pardayev S. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini onlayn nazorat qilishda Google Formsning imkoniyatlari // Ilmiy-uslubiy maqola. – 2023.
2. Abdurrahman A. et al. The Use of Google Forms for Learning Assessment: A Meta-Analysis Study // Journal of Education Technology. – 2021.
3. Bondarenko O., Pakhomova L., Lewoniewski W. Google Classroom as a Tool of Support of Blended Learning for Geography Students // Scientific publication. – 2019.
4. Bondarenko O., Pakhomova L., Lewoniewski W. The Didactic Potential of Virtual Information Educational Environment // Scientific publication. – 2020.
5. Tursinova Z. Ta’lim sifatini oshirishda o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini baholash mexanizmlari // Qarshi DU ilmiy to‘plami. – 2025.
6. Google for Education. Guide to Google Classroom and Cloud-Based Learning Tools // Google for Education official guide. – 2023. Saidova D. Teaching Programming Collaboratively Through Google Colab AND Github Integration // Green Economy and Development. – T. 3. – №. 11. – C. 667884.

7. Saidova D. E. Analysis of the problems of the teaching object-oriented programming to students //International Journal of Social Science Research and Review. – 2022. – Т. 5. – №. 6. – С. 229-234.
8. Lakshmanan V., Tigani J. Google BigQuery: The Definitive Guide: Data Warehousing, Analytics, and Machine Learning at Scale. – Sebastopol: O’Reilly Media, 2019. – 350 p.
9. Mucchetti M. BigQuery for Data Warehousing: Managed Data Analysis in the Google Cloud. – Berkeley: Apress, 2020. – 550 p.
10. Long P., Siemens G. Penetrating the Fog: Analytics in Learning and Education // EDUCAUSE Review. – 2011. – Т. 46. – № 5. – С. 31–40.
11. Ferguson R. Learning Analytics: Drivers, Developments and Challenges // International Journal of Technology Enhanced Learning. – 2012. – Т. 4. – № 5/6. – С. 304–317.
12. Buckingham Shum S., Deakin Crick R. Learning Analytics for 21st Century Competencies // Journal of Learning Analytics. – 2016. – Т. 3. – № 2. – С. 6–21.

Aniq fanlarda axborot texnologiyalari

TALABALARNING AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA FRILANSERLIKKA OID KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA’LIMDAN FOYDALANISH USULI

Himmatov Shohrux Oripovich

Navoiy davlat universiteti, O‘zbekiston

Elektron pochta: himmatov0757@gmail.com

ORCID: 0009-0004-5345-680X

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalari talabalarining mustaqil ta’limini tashkil etish muammolari yoritilgan. Shuningdek, talabalarining axborot texnologiyalari sohasida frilanserlikka oid kompetentligini rivojlantirishda mustaqil ta’limdan foydalanish tuzilmasi taklif etilgan. Shu bilan birga mazkur maqolada, tadqiqot doirasida taklif etilayotgan tuzilmani samaradorligini aniqlash bo‘yicha tajriba-sinov ishlari olib borilgan hamda uning samaradorlik darajasi Styudent-Fisher kriteriyasidan foydalanib isbotlangan.

Tayanch so‘zlar: Frilanserlik, kompetentlik, tuzilma, axborot texnologiya, web-platforma, tajriba-sinov, Styudent-Fisher.

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ ДЛЯ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В СФЕРЕ ФРИЛАНСА В ОБЛАСТИ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Химматов Шохрух Орипович

Навоийский государственный университет, Узбекистан

Аннотация: В данной статье освещаются проблемы организации самостоятельной работы студентов высших учебных заведений. Также предлагается структура использования самостоятельной работы для развития компетентности студентов в области фриланса в сфере информационных технологий. Вместе с тем, в статье представлены результаты опытно-экспериментальной работы по определению эффективности предлагаемой в рамках исследования структуры, а её эффективность доказана с использованием t-критерия Стьюдента-Фишера.

Ключевые слова фриланс, компетентность, структура, информационные технологии, веб-платформа, опытно-экспериментальная работа, критерий Стьюдента-Фишера.

METHODOLOGY FOR USING SELF-DIRECTED LEARNING TO DEVELOP STUDENTS’ COMPETENCIES FOR FREELANCING IN THE INFORMATION TECHNOLOGY SECTOR

Khimmatov Shokhrukh

Navoi State University, Uzbekistan

Abstract: This article highlights the challenges of organizing self-directed work for students in higher education institutions. It also proposes a framework for using self-directed work to develop students’ competencies for freelancing in the field of information technology. Furthermore, the article presents the results of a pilot study conducted to determine the effectiveness of the proposed framework, with its efficacy verified using the Student-Fisher t-test.

Key words: freelancing, competency, framework, information technology, web platform, pilot study, Student-Fisher t-test.

Kirish. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari kredit-modul tizimiga o’tganligi uchun auditoriyada olib borilayotgan mashg‘ulotning 50-60 % i mustaqil ta’limga ajratilgan. Shuning uchun oliy ta’lim muassasalaridan talabalarning mustaqil ta’limini ta’limini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri bo’lib qolmoqda [1]. Talabalarning axborot texnologiyalari sohasida mustaqil ta’limini tashkil etishni zamonaviy yondashuvi sifatida frilanserlikka oid qiziqishini va ijodiy qobiliyatini oshirish hamda kompetentligini rivojlantirishdan iborat.

Ilgari surilayotgan tadqiqot ham ushbu masalalarga qaratilgan bo’lib, ya’ni talabalarning axborot texnologiyalari sohasida frilanserlikka oid kompetentligini rivojlantirishda mustaqil ta’limdan foydalanishdan iborat.


Adabiyotlar tahlili. Talabalarning axborot texnologiyalarga oid fanlardan mustaqil ta’limini tashkil etish masalalariga doir tadqiqotlar U.M.Mirsanov [1], S.Q.Tursunov [2], M.R.Fayziyeva [3], A.O.Norbekov [4], A.D.Ongarbayeva [5], D.V.Luchaninov [6], H.B.Сметанина [7]lar tomonidan amalga oshirilgan.

Shuningdek, ta’lim oluvchilarning frilanserlik faoliyatga tayyorlash muammolar bo’yicha N.V.Chaplashkin [8], O.V.Poletayeva [9], Ivona Hudek [10], Fareeha Sami Khan [11], A.T. Xalikov [12] kabi olimlar tomonidan o’rganilgan.

Ushbu olimlarning ishlarida oliy ta’lim muassasalarida talabalarning axborot texnologiyalarga oid fanlardan mustaqil ta’limni tashkil yetish metodikasini takomillashtirish bo’yicha nazariy va amaliy ahamiyatga molik ayrim yondashuvlar ilgari surilgan bo’lsa-da, ammo talabalarning axborot texnologiyalari sohasida frilanserlikka oid kompetentligini rivojlantirishda mustaqil ta’limdan foydalanish masalalariga e’tibor qaratilmagan. Shu bois, ilgari surilayotgan tadqiqot, ya’ni talabalarning axborot texnologiyalari sohasida frilanserlikka oid kompetentligini rivojlantirishda mustaqil ta’limdan foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Oliy ta’lim muassasalari talabalarining mustaqil ta’limini tashkil etishga oid olimlarning tadqiqotlarini tahlil etish asosida

talabalarning axborot texnologiyalari sohasida frilanserlikka oid kompetentligini rivojlantirishda mustaqil ta’limdan foydalanish tuzilmasi ishlab chiqildi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Talabalarning mustaqil ta’limida axborot texnologiyalarga oid kompetentligini rivojlantirish tuzilmasi

Ushbu tuzilma talabalarning mustaqil ta’limida axborot texnologiyalari sohasida frilanserlikka oid kompetentligini rivojlantirish uchun to‘rt bosqichda foydalanish nazarda tutilgan. Taklif etilayotgan bosqichlarning asosiy g‘oyasi global tarmoqning manzillarida joylashtirilgan ta’lim muhitdan foydalanishga qaratilgan.


Tahlil va natijalar. Talabalarning mustaqil ta’limida axborot texnologiyalari sohasida frilanserlikka oid kompetentligini rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan tuzilmani samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlari Navoiy davlat universitetida tahsil olayotgan talabalar jalb etilib, ular tajriba (160 nafar) va nazorat (154 nafar) guruhlariga ajratildi. Talabalarning tajriba va nazorat guruhga ajratishda bilim darajasi bir xillilika amal qilindi. Ularning natijalar quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Talabalarning tajriba boshidagi ko‘rsatkichlari

Talabalarning umumiy soni	Tajriba guruhi				Talabalarning umumiy soni	Nazorat guruhi			
	5 (a’lo)	4 (yaxshi)	3 (qoniqarli)	2 (qoniqarsiz)		5 (a’lo)	4 (yaxshi)	3 (qoniqarli)	2 (qoniqarsiz)
160	14	46	91	9	154	15	42	89	8

1-jadvalda keltirilgan natijalarini o‘zlashtirish dinamikasini qiyida keltirilgan (2- rasmga qarang):



Talabalarning tajriba boshidagi ko‘rsatkichlari

Mazkur tajriba-sinovga jalb etilgan talabalarining natijalari tahlil etilib, ishonchliligini tekshirish maqsadida Student-Fisher kriteriyasi asosida matematik-statistik tahlil etildi. Mazkur kriteriyadan foydalanishda tanlanmalar uchun mos o‘rta

qiymatlar $\bar{X} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^4 n_i X_i$, tarqoqlik koeffitsiyentlarini $D_n = \sum_{i=1}^4 \frac{n_i (x_i - \bar{X})^2}{n - 1}$, o‘zlashtirish

ko‘rsatkichlarini formuladan foydalanib hisoblandi. Hisoblash natijasiga ko‘ra tajriba va nazorat guruhidagi talabalarning natijalari deyarli bir xil ekanligi aniqlandi.


Tajriba-sinov ishining navbatdagi bosqichida tajriba guruhiga ajratilgan talabalarga tadqiqot doirasida taklif etilgan tuzilmadan foydalanildi. Nazorat guruhiga ushbu imkoniyat berilmadi. Bunda, ya’ni tajriba oxirida talabalar quyidagi natijalarga erishildi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Talabalarning tajriba oxiridagi ko‘rsatkichlari

Tajriba guruhi					Nazorat guruhi				
Talabalar umumiy soni	5 (a'lo)	4 (yaxshi)	3 (qoniqarli)	2 (qoniqarsiz)	Talabalar umumiy soni	5 (a'lo)	4 (yaxshi)	3 (qoniqarli)	2 (qoniqarsiz)
160	22	76	60	2	154	15	42	89	8

2-jadvalda keltirilgan natijalarini o‘zlashtirish dinamikasini qiyida keltirilgan (3- rasmga qarang):



3-rasm. Talabalarning tajriba oxiridagi ko‘rsatkichlari

2-jadvalda keltirilgan sonli ma’lumotlar yuqorida keltirilgan formulalar asosida hisoblandi. Hisoblash natijasiga ko‘ra, tajriba guruhining o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan yuqori ekanligi, ya’ni 10,7 % ga oshganligi ma’lum bo‘ldi.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib talabalarning mustaqil ta’limida axborot texnologiyalari sohasida frilanserlikka oid kompetentligini rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan tuzilma samarali ekanligi aniqlandi. Shu bois taklif etilayotgan tuzilmadan oliy ta’lim muassasalari talabalarining axborot texnologiyalari sohasida frilanserlikka oid kompetentligini rivojlantirishda foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi.

Adabiyotlar

1. Mirsanov U. M. Uzluksiz ta’lim tizimida dasturlash texnologiyalarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish // Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Navoiy, 2023. – 332 b.

2. Турсунов С.Қ. Таълимда электрон ахборот ресурсларини яратиш ва уларни жорий қилишнинг методик асослари (педагогика олий таълим

муассасалари «Web-дизайн»фани мисолида) Педагогика фанлари номзоди диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2011. – 23 б.

3. Файзиева М.Р. Ўқув жараёнига мослашувчи WEB тизимларни яратиш // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2017. – 189 б.

4. Норбеков А.О. Педагогика олий таълим муассасаларида компьютер таъминоти фанини ўқитиш самарадорлигини ошириш методикаси // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган Диссертация. – Қарши, 2021. –171 б.

5. Онгарбаева А.Д. Методика подготовки будущих учителей информатики к созданию электронных образовательных ресурсов // Диссертацияна соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Бишкек, 2019. – 198 с.

6. Лучанинов Д.В. Методика развития творческой информационной компетентности студентов в информатических дисциплинах // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Биробиджан, 2017. – 188 с.

7. Сметанина Н. В. Повышение эффективности самостоятельной работы студентов вузов // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Москва, 2006. –20 с.

8. Чаплашкин Н.В. Фриланс как новое социальное явление и его последствия // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата социологических наук. – Нижний Новгород, 2013. – 26 с.

9. Полетаева О.В. Фрилансеры в составе класса наемных работников: профессиональные характеристики и статусные позиции // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата социологических наук. – Пенза, 2017. – 28 с.

10. Ivona Hudek. The emergence of gig economy under the impact of digitalization – model of the success factors of freelancers // Doctoral dissertation. – Slovenia, 2022. – 321 p.

11. Fareeha Sami Khan, et al. Does freelancing have a future? Mathematical analysis and modeling //Mathematical Biosciences and Engineering. – 2022. – T. 19. – №. 9. – С. 9357-9370.

12. Xalikov A.T. O’quvchilarning frilanserlikka oid kompetensiyalarini shakllantirish modeli // Elektron ta’lim jurnali. – Navoiy, 2023. – №. 3. – B. 65-73.

Aniq fanlarda axborot texnologiyalari

MASOFAVIY TA’LIM SHAKLIDA TAHSIL OLUVCHI TALABALARNING MUSTAQIL TA’LIMINI TASHKIL ETISHGA MO’LJALLANGAN PLATFORMADAN FOYDALANISH

Mavlanova Xafiza Kenja qizi

Navoiy davlat universiteti, O‘zbekiston

Elektron pochta: xafizamavlanova932@gmail.com

ORCID 0009-0002-6215-6476

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida masofaviy ta’lim shaklida tahsil oluvchi talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish muhimligi keltirilgan. Shuningdek, masofaviy ta’lim shaklida tahsil oluvchi talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishga mo’ljallangan raqamli platforma ishlab chiqilgan va uning imkoniyati yoritilgan

Tayanch so’zlar: masofaviy ta’lim, LMS, EduFlow, Python, FastAPI, Deepface, Face ID, akademik analitika, gamifikatsiya.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПЛАТФОРМЫ ДЛЯ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ, ОБУЧАЮЩИХСЯ В ФОРМАТЕ ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Мавланова Хафиза

Навоийский государственный университет, Узбекистан

Аннотация: В данной статье обосновывается важность организации самостоятельной работы студентов, обучающихся в высших учебных заведениях в формате дистанционного образования. Также описывается разработанная цифровая платформа, предназначенная для организации самостоятельной работы студентов, обучающихся дистанционно, и освещаются её возможности.

Ключевые слова: самостоятельное образование, веб-платформа, современные информационно- дистанционное обучение, LMS, EduFlow, Python, FastAPI, Deepface, Face ID, академическая аналитика, геймификация.

USE OF THE PLATFORM FOR ORGANIZING INDEPENDENT LEARNING OF STUDENTS STUDYING IN DISTANCE EDUCATION

Mavlanova Khafiza

Navoi State University, Uzbekistan

Abstract: This article presents the importance of organizing independent learning for students studying in distance learning formats at higher educational institutions. Additionally, a digital platform designed to organize independent learning for distance learning students has been developed, and its capabilities are highlighted.

Key words: distance learning, LMS, EduFlow, Python, FastAPI, Deepface, Face ID, academic analytics, gamification.

Kirish. Bugungi kunda masofaviy ta’lim shaklida tahsil oluvchi talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish muhim masalalardan biri sanaladi. Chunki masofaviy ta’lim shaklida tahsil oluvchi talabalarni mustaqil ta’limini tashkil etish, nazorat

qilish va baholash bir muncha mushkil hisoblanadi. Shuning uchun masofaviy ta’lim shaklida tahsil oluvchi talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishni zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqish muhim masalalardan biri sanaladi. Masofaviy ta’lim shaklida tahsil oluvchi talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishni zamonaviy yondashuvlaridan biri sifatida zamonaviy raqamli platformalarni keltirish mumkin. Shu bois ilgari surilayotgan tadqiqotda masofaviy ta’lim shaklida tahsil oluvchi talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishda raqamli platformadan foydalanishga doir taklif va tavsiyalar berib o‘tilgan.

Adabiyotlar tahlili. Masofaviy ta’limdan foydalanish nazriyasi va amaliyotiga doir izlanishlar A.A.Abduqodirov [1], M.M.Aripov [2], U.SH.Begimqulov [3], N.I.Taylakov [4], A.A.Andreyev [5], Y.P.Gospodarik [6] kabi olimlarning ishlarida keltirilgan. Jumladan, A.A.Abduqodirov [1], A.A.Andreyev [5], Y.P.Gospodarik [6]lar ta’lim jarayoniga masofaviy ta’limni joriy etish usullari va masofaviy ta’limdan foydalanishdagi mavjud muammolarni aniqlagan. M.M.Aripov oliy o‘quv yurtlarida informatika fanini o‘qitishda masofaviy ta’limga mo‘ljallangan tizimni yaratish va qo‘llash bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib borgan [2]. U.Sh.Begimqulov [3], N.I.Taylakov [4]lar oliy ta’lim muassasalari ta’lim va tarbiya jarayonida axborot-ta’lim muhitidan foydalanish muammolari o‘rganilgan.

Shuningdek, talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish muammolariga oid tadqiqotlar R.T.Auyezova [7], U.B.Baxodirova [8], T.Bidjerano [9], D.Y.Dai [9], V.V.Grek [10], A.O.Nopbekov [11]larning ishlarida o‘z aksini topgan. Ushbu olimlarning ishlarida talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishda axborot-ta’lim muhitlardan va web-platformalardan foydalanish samarali ekanligini asoslagan.

Yuqorida qayd etilgan olimlarning ishlarini tahliliga ko‘ra, bugungi raqamlashtirish sharoitida masofaviy ta’lim shaklida tahsil oluvchi talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishda raqamli platformalardan foydalanish muhim masalardan biri sanaladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Izlanishlarimiz asosida masofaviy ta’lim shaklida tahsil oluvchi talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish uchun zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanisga ehtiyoj mavjudligi aniqlandi. Shuning uchun tadqiqot davomida masofaviy ta’lim shaklida tahsil oluvchi talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishga mo‘ljallangan raqamli platforma “**EduFlow LMS**” onlayn platformasi ishlab chiqildi. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan raqamli platformaning xavfsiz, tezkor va yuklamalarga chidamli bo‘lishini ta’minlash uchun zamonaviy dasturiy vositalar majmuasidan foydalanilgan:

- **dasturlash tili (Python):** sun’iy intellekt va ma’lumotlarni qayta ishlash algoritmlari uchun eng mukammal til hisoblangan Python tizimning asosiy yadrosi (miyasi) bo‘lib xizmat qiladi.

- **veb-freymvork (FastAPI / Web Framework):** tizimning backend qismi (API server) yuqori tezlikka ega asinxron freymvorkda qurilgan. U frontend qismidan kelayotgan so‘rovlarni va Face ID ma’lumotlarini millisekundlarda qayta ishlash imkonini beradi.

- **biometrik neyron tarmoq (Deepface):** foydalanuvchining yuzini tanish (Face ID) va uni ma’lumotlar bazasidagi rasm bilan solishtirish uchun Pythonning ilg‘or gibrid yuz tanish kutubxonasi — Deepface joriy etilgan.

Tahlil va natija. EDUFLOW LMS platformasining asosiy modullari quyidagilardan iborat:

1. *Deepface asosidagi biometrik autentifikatsiya (Face ID Moduli). An’anaviy login va parol tizimi masofaviy ta’limda talabaning shaxsini to’liq kafolatlay olmaydi. EduFlow platformasida ushbu muammo Deepface neyron tarmog’i yordamida hal etilgan (1-rasm).*




1-rasm. Platformadan foydalanish jarayoni

Kimyo ta’limida raqamli texnologiyalarning amaliy qo’llanishi bo’yicha Ch.K. Haydarovanning “Polimerlar kimyosi fanidan 3D texnologiyalar asosida interaktiv qo’llanma yaratish” nomli PhD avtoreferati alohida ahamiyatga ega. Tadqiqotda 3D, VR va AR texnologiyalari asosida polimerlar kimyosini o’qitish, interaktiv elektron qo’llanma yaratish, talabalar mustaqil faoliyatini rivojlantirish va kimyo fanini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan integratsiyalash masalalari ilmiy

asoslangan. Bu yondashuv maqolada ko‘rsatilgan 3D texnologiyalar va raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish g‘oyalarini yanada kuchaytiradi.[3]

X.D. Abdullayevaning “Tibbiyot oliy ta’lim tashkilotlarida kimyo fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish” mavzusidagi avtoreferatida ham kimyo fanini o‘qitish metodikasini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish, talabalarda ijodiy va tanqidiy fikrlashni shakllantirish masalalari yoritilgan. Bu tadqiqot kimyo fanini o‘qitishda raqamli vositalar faqat texnik yordamchi vosita emas, balki metodik tizimning muhim tarkibiy qismi ekanligini ko‘rsatadi.

Jahon ilmiy adabiyotlarida o‘qituvchilarning raqamli kompetentligini shakllantirish masalasi TPACK modeli bilan izohlanadi. P. Mishra va M. Koehler tomonidan ishlab chiqilgan TPACK yondashuvida samarali raqamli ta’lim texnologiya, pedagogika va fan mazmunining uyg‘unligiga asoslanishi ta’kidlanadi. Kimyo o‘qituvchisi raqamli vositani faqat namoyish qilish uchun emas, balki mavzuni tushuntirish, tajribani modellashtirish, o‘quvchini izlanishga yo‘naltirish va baholash jarayonini takomillashtirish uchun qo‘llashi kerak [5.]

Raqamli kompetentlikni baholashda DigCompEdu ham muhim nazariy asos hisoblanadi. Ushbu Yevropa modeli o‘qituvchilarning raqamli resurslardan foydalanish, ta’lim jarayonini raqamli muhitda tashkil etish, o‘quvchilar faoliyatini baholash, individual yondashuvni ta’minlash va o‘z kasbiy rivojlanishini raqamli texnologiyalar orqali amalga oshirish kompetensiyalarini belgilaydi. UNESCOning ICT Competency Framework for Teachers modeli esa o‘qituvchilar uchun AKTdan foydalanish bo‘yicha 18 kompetensiya va 64 aniq maqsadni ajratib ko‘rsatadi.

Kimyo ta’limida virtual laboratoriyalar va kompyuter simulyatsiyalaridan foydalanish bo‘yicha xorijiy tadqiqotlar ham muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. L.K. Smetana va R.L. Bell kompyuter simulyatsiyalari tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning mavzuni chuqurroq tushunishi, abstrakt jarayonlarni ko‘rishi va tajribani xavfsiz muhitda modellashtirishiga yordam berishini ko‘rsatgan. Z. Tatli va

A. Ayas tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda virtual kimyo laboratoriyasi o‘quvchilarning o‘zlashtirish natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi qayd etilgan.

So‘nggi yillarda kimyo ta’limida raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha tizimli adabiyotlar tahlillari ham ko‘paymoqda. L.R. Araújo va hammualliflar tomonidan bajarilgan tizimli tahlilda raqamli texnologiyalar kimyo fanini o‘qitishda vizualizatsiya, interaktivlik, laboratoriya jarayonlarini modellashtirish va mustaqil ta’limni qo‘llab-quvvatlash imkoniyatiga ega ekanligi ko‘rsatilgan. F. Alhashem tadqiqotida esa virtual laboratoriyalarni kimyo darslariga integratsiya qilish bo‘lajak o‘qituvchilarning laboratoriya jarayonlarini tushunishi va darsni texnologik boyitish qobiliyatini rivojlantirishi ta’kidlangan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston va xorij olimlari tadqiqotlarida kimyo ta’limida raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari mavjud. Biroq amaliyotda kimyo o‘qituvchilarining raqamli kompetentligini tizimli rivojlantirish, LMS va MOOC platformalaridan fan xususiyatiga mos foydalanish, virtual laboratoriyalarni o‘quv dasturiga integratsiya qilish, elektron resurslarni metodik jihatdan to‘g‘ri loyihalash va raqamli baholash mexanizmlarini takomillashtirish masalalari hali ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan, kimyo fani o‘qituvchilarining raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishidagi muammo va yechimlarni aniqlashga qaratilgan mazkur maqola mavjud ilmiy izlanishlarni amaliy pedagogik muammo bilan bog‘lab beradi hamda kimyo ta’limi sifatini oshirishga xizmat qiladigan metodik tavsiyalarni ishlab chiqish zaruratini asoslaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Barchamizga ma’lumki, hozirgi kunda hayotimizning hech bir jabhasini internetsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Oddiy hayot tarzimizdan to egallagan sohamizga qadar biz, kompyuter tarmoqlarining turli xizmatlaridan foydalanamiz. Kasb o‘rganishmi, hunar o‘rganishmi, ishimizni rivojlantirishmi, hujjatlar sohasidami, farqi yo‘q har qadamda internet xizmatiga murojaat qilamiz. O‘z o‘rnida, bu biz uchun o‘ta samarali usul hisoblanadi.

Axborot texnologiyalari bizga kam vaqt, kam mehnat sarflab sifatli va aniq ma’lumotga ega bo’lish imkonini beradi. Biz o’zimiz anglab, anglamay raqamli texnologiyalarning faol foydalanuvchisi yoki ijrochisi hisoblanamiz. Aynan shuning uchun ham bugungi kunda davlatimizda raqamli texnologiyalardan foydalanishni yanada kengroq joriy qilish bo’yicha ulkan rejalar, loyihalar amalga oshirilmoqda. Joylarda internet tarmog’idan foydalanishning imkoniyatlari yaratilmoqda. Internet tezligini oshirish, chekka hududlarni ham sifatli internet xizmati bilan ta’minlashning ko’plab imkoniyatlari yaratilmoqda. Bunga birgina misol qilib, 2017-yilda axborot texnologiyalari vazirligi tomonidan mamlakatimiz hududlarida 2300 km optik tolali aloqa tarmoqlari qurilib, 5,7 mln dollar mablag’ jalb etilganligini aytish mumkin. Shunday ekan, ta’lim tizimida ham raqamli texnologiyalarni qo’llash, uning zamonaviy va muhim vositalarini tanlagan olda ta’lim samaradorligini oshirish o’ta muhim masala hisoblanadi.[2]

Endilikda zamonaviy ta’limni tashkil etishga to’sqinlik qiluvchi holatlar bartaraf etilayotgan bo’lsada quyidagilar hamon sohadagi ishlarni amalga oshirish jarayoniga salbiy ta’sir etib kelmoqda:

- o’qituvchilarning zamonaviy axborot kommunikatsion vositalar haqida kam ma’lumotga ega ekanligi;
- ta’lim muassasalarining zamonaviy ta’lim berishga mo’ljallangan vositalar bilan ta’minlanish holatining talab darajasida emasligi;
- zamonaviy ta’limni tashkil etishga yordam beradigan internet tarmog’ining yetib bormaganligi yoki tezlikning pastligi;
- o’quvchilar yoki talabalarning ta’limni tashkil etishning zamonaviy vositalariga ega emasligi;
- o’qituvchilarning darslarni raqamli texnologiyalar yordamida tashkil etishga doir bilimlari sayoz ekanligi;
- ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan pedagoglarning internet yordamida darslarni tashkil etish bo’yicha zarur ko’nikmalarga ega emasligi;

- o‘qituvchilarimizning internet tarmog‘ida qanday o‘qitish tizimlari mavjudligi haqida yetarlicha ma’lumotga ega emasligi;

- internetda mavjud LMS platformalaridan foydalanish darajasining pastligi;

Axborot asosan quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Matnli axborot;

2. Grafikli axborot;

3. Tovushli axborot;

4. Videolavhali axborot;

5. Belgili axborot;

6. Raqamli axborot.

Hozirgi vaqtda o‘qituvchilarning katta qismi axborot kommunikatsiya vositalaridan proyektordan unumli foydalanishni bilsada qolgan zamonaviy texnologiyalar haqida kamroq bilimga egalar. Bu esa ta’limni tashkil etishda turli muammolarga olib kelishi mumkin. Raqamli texnologiyalar haqida gapirganda internet orqali tashkil etiladigan mailing lists, telnet, yuneset, e-minbar, ochiq ommaviy kurslar, LMS(Learning Management System) ta’limni boshqarish tizimlari kabi yo‘nalishlar yuqori samara berishi bilan ajralib turishini yodga olish mumkin.[3].Ko‘pchilikka ma’lumki o‘qitishning odatdagi an’anaviy usulida o‘qituvchi faol o‘quvchi tinglovchiga aylanadi. Bunday hollarda ta’lim olish quruq yodlash va esda olib qolish uchun yo‘nalgan bo‘ladi. Bu esa ma’lum muddat o‘tib olingan bilimning xotiradan o‘chishiga olib kelishi mumkin. Zamonaviy ta’lim jarayoni esa o‘quvchiga o‘z ustida ko‘proq ishlash imkonini beradi. Ya’ni o‘quvchining o‘zi mavzuni o‘qiydi, o‘zlashtiradi, mustaqil yangi ma’lumotlar topadi va uni tahlil qiladi. Zamonaviy ta’lim jarayonini tashkil etish katta kuch va salohiyat talab etadi. Buning uchun raqamli texnologiyalarni qo‘llash yaxshi samara beradi.

Xususan, LMS, MOOC, telnet, e-minbar kabilar. Bu kabi texnologiyalar ta’limda:


- o‘quvchilar bilim olishining faollashishiga, modellashtirishga;

- har qanday vositalardan kompleks foydalanishga;
- o‘quvchilarning bilimlarni kompyuter orqali ob’yektiv baholanishiga imkon yaratadi.

Bundan tashqari raqamli texnologiyalardan foydalanish auditoriyaning to‘liq qamrab olish va fanga nisbatan muhabbat uyg‘otishga sabab bo‘ladi. Shu bilan birga ta’lim muassasasida internet tarmog‘ining bo‘lishi va sifatli ishlashi ta’limni sifatini oshirishga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar joriy etilgan ta’lim tizimi vosilari rolini multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Bugun ular bilan ta’lim tizimining qurollantirilishi o‘quvchilarga dars mashg‘ulotlarini sifatli o‘tilishini ta’minlaydi.

Raqamli muhit allaqachon rus maktablarida shakllana boshladi. MES bulutli platformasi poytaxtda o‘tgan yilning sentyabr oyidan buyon ishlamoqda (Moskva elektron maktab"). Poytaxt maktablari elektron platalar, noutbuklar va yuqori tezlikdagi Internetdan foydalanadi. Ta’limni modernizatsiya qilishda multimediya darslari skriptlari, o‘quv video va audio materiallar, 3D dasturlar, virtual muzeylar, kutubxonalar va laboratoriyalar olib kelindi. 2020 yilga kelib, 11 ta qog‘oz darsliklardan butunlay voz kechish rejalashtirilgan maktab fanlari, ularni mobil qurilmalarga almashtirish - alohida planshetlar. Ularda siz o‘quv materiallarini, video darslarini ko‘rishingiz, shuningdek, video -turlarga borishingiz, elektron kutubxonalardan foydalanishingiz va elektron kundaliklarni yuritishingiz mumkin.

[4]



1-rasm. Ta’lim tizimidagi raqamli texnologiyalardan foydalanish

Hozirgi raqamli texnologiyalar -

- Bu o‘quvchilarga ma’lumot va bilimlarni samarali etkazish vositasidir.
- Bu o‘quv materiallarini yaratish vositasidir.
- Bu vosita samarali usul o‘qitish.
- Bu yangisini qurish vositasidir ta’lim muhiti: rivojlanayotgan va

texnologik.

- Biz bugun qanday yangi zamonaviy, raqamli texnologiyalar haqida e’lon qilamiz?

Biz bugun qanday yangi zamonaviy, raqamli texnologiyalar haqida e’lon qilamiz? Bu:

- Virtual haqiqat texnologiyasi.
- Panoramik tasvir texnologiyasi.
- 3D modellashtirish texnologiyasi.
- "Ta’lim robototexnika" texnologiyasi.
- ISI texnologiyasi (kichik axborotlashtirish vositalaridan foydalanish).

- Multimediali ta’lim mazmuni.
- Interaktiv elektron kontent.

Ta’lim standartlari bizni o‘quv jarayonini qayta tashkil etishga yo‘naltiradi. Bu asosan o‘qituvchi va talabalarning eksperimental faoliyatiga tegishli. Nima uchun? Gap shundaki, talabalar nafaqat amaliy ko‘nikmalarni, balki umumiy ta’lim ko‘nikmalarini ham o‘zlashtirishi kerak: o‘quv jarayonini shunday tashkil etish kerakki, bu usul tabiiy ravishda o‘zlashtirilsin. O‘qituvchi va talabalarning birgalikdagi tadqiqot texnologiyasi, albatta, o‘qitishda muammoli-qidiruv usulini amalga oshiradi va ilmiy bilimlarning ma’lum tsiklini amalga oshirilishini ta’minlaydi: faktlar - model - effekt - tajriba - faktlar.[5]

Dastlab o‘qituvchi kuzatuvlarni uyushtiradi va ko‘rgazmali tajribalar o‘rnatadi, faktlarni oladi, shular asosida o‘quvchilar bilan birgalikda ma’lum bir hodisa bo‘yicha xulosalar chiqariladi. Olingan dalillarga asoslanib, o‘qituvchi va talabalar kuzatilgan hodisalarni tushuntirishga va naqshlarni aniqlashga harakat qiladilar (ular uchun gipotezalar ilgari suriladi), oqibatlarini chiqarib, sabablarini aniqlaydilar. Shundan so‘ng, talabalar va o‘qituvchi qaysi test tajribalarini o‘tkazish mumkinligi, ularning g‘oyalari va maqsadlari qanday bo‘lishi va ularni qanday amalga oshirish haqida o‘ylashadi. Talabalar o‘z rejalarini mustaqil laboratoriya tajribasida amalga oshiradilar, natijalari (yangi faktlar) nazariy bashoratlar bilan solishtiriladi va xulosalar chiqariladi. Ushbu texnologiya quyidagilarga imkon beradi:

Pandemiya sharoiti ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar qo‘llanilishi yaxshi samara berishini isbotladi. Televideniya orqali berib borilgan onlayn darslar raqamli ta’limga o‘tishning bir debochasi sifatida qabul qilsak bo‘ladi.

Bu jarayon o‘quvchiga uydan chiqmay turib ham ta’lim olish mumkinligini isbotlab berdi. Raqamli ta’limga o‘tishning boshqa afzalliklari to‘g‘risida fikr yuritadigan bo‘lsak ularga quyidagilarni kiritish o‘rinlidir.

- darsliklar elektron holatda ekranlarga ko‘chadi;

- o‘quvchilar xoxlagan joyida va xoxlagan vaqtida ta’lim olish imkoniga ega bo‘ladi;
- o‘quvchilar mutaxasis yetishmaydigan uzoq qishloqlarda ham fanlarni tanlash va uydan turib ta’lim olish imkoniga ega bo‘ladi;
- internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi;
- ta’lim tizimini yangi bosqichga ko‘taradi, vaqt va mablag‘ sarfini keskin kamaytiradi;
- “raqamli dunyo” da yo‘qolib qolmaslik va yaxshi ish topishda ustunliklarga ega bo‘ladi.

Tahlil va natijalar. Biz raqamli texnologiyalardan ta’lim tizimida foydalanishning ahamiyatini ko‘rib chiqar ekanmiz, bir savolga javob topishimizga to‘g‘ri keladi.

“Bizning ta’lim tizimida pedagoglarimiz yoppasiga shu yo‘nalishdan foydalanishga tayyormi?” Ha, bu o‘ylantiradigan savol. Bu masalani ijobiy tomonga hal qilishning qanday yo‘llari mavjud?

Ushbu maqolada aynan shu savollarga javob topishga harakat qilamiz. Tizimdagi pedagoglarni hammasini birdan raqamli texnologiyalardan to‘liq foydalanib darslarni tashkil etishlariga erishish ancha murakkab bo‘lsada, buning imkoni bor. Masalan,

- Raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha aniq amaliy ishlar asosida shakllantirilgan o‘quv materiallari to‘plamini yaratish zarur;
- Ushbu to‘plam bo‘yicha aynan ta’lim tizimlari ya’ni LMS yordamida o‘qitishni tashkil etish;
- Barcha fanlar kesimida mavzulashtirilgan testlar, topshiriqlar, videodarslar bazasini shakllantirish va uni tarmoqqa joylashtirish;
- Fanlar kesimida maxsus darslar tashkil etib sohadagi xodimlarning bu boradagi bilimlari, tajribalarini oshirish;

- Pedagogika Oliygo'harida tahsil olayotgan talabalar uchun ham belgilangan reja asosida raqamli texnologiyalar orqali darslarni tashkil etish tajribalarini, ko'nikmalarini shakllantirib borish;

- Raqamli texnologiyalarni qo'llashning bosqichma-bosqich amalga oshirish rejalarini ishlab chiqish va amalda qo'llash talab etiladi.

Respublikamizda salohiyatli o'z ustida ishlaydigan, bilimli, shijoatli o'qituvchilar talaygina. Biz shu imkoniyatlarimizni hisobga olgan holda ta'limning yagona tizimlashtirilgan shaklini yaratishimiz va tatbiq etishimiz mumkin. Bu yurtimizda ta'lim samaradorligini yanada oshirishi bilan birga, keng qamrovli bilimga ega pedagoglar jamoasini yaratib tizimdagi ko'pgina muammolarni bartaraf etgan bo'lamiz. Bunday loyihalarni tatbiq etish vaqt va mehnat talab qilsada, ta'limda chuqur ildiz otgan ayrim illatlarni bartaraf etilishiga olib keladi. Pedagoglarni o'z ustida tinimsiz ishlashlari, yangi bilimlarni zamon bilan hamnafas bo'lib o'zlashtirishlari, til o'rganishlari, texnologiyalardan foydalanish usullarini bilishlari, o'z fanlarini nafaqat bir xil qolipdagi darsliklardan, balki boshqa davlat tajribalari asosida o'rganishlariga erishiladi. Qisqacha qilib aytganda biz jamiyatga jahon talablariga mos pedagoglarni yetkazib berishni boshlaymiz. Bu esa har bir pedagog uchun davr talabi ekanligini qalban his etishlariga va ma'suliyatli bo'lishlariga olib keladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, kimyo fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish, mavzularni vizual, interaktiv va amaliy tarzda tushuntirish imkonini beradi. Ayniqsa, kimyo fanidagi murakkab jarayonlar, laboratoriya tajribalari, modda tuzilishi, reaksiyalar mexanizmi va molekulyar jarayonlarni 3D modellar, virtual laboratoriyalar, multimedia vositalari hamda LMS platformalari orqali tushuntirish o'quvchilarning bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishiga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda kimyo fani o‘qituvchilari raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha ma’lum tajribaga ega bo‘lsalar-da, bu jarayon hali barcha ta’lim muassasalarida tizimli yo‘lga qo‘yilmagan. Ayrim o‘qituvchilarda raqamli platformalar, elektron ta’lim resurslari, virtual laboratoriyalar va onlayn baholash vositalaridan foydalanish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar yetarli emas. Shuningdek, texnik jihozlar, internet tezligi, elektron o‘quv-metodik resurslarning yetishmasligi ham raqamli ta’lim imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda.

Kimyo ta’limida raqamli texnologiyalardan foydalanish faqat dars jarayonini zamonaviylashtirish vositasi emas, balki o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, izlanish, tajriba natijalarini tahlil qilish, muammoli vaziyatlarga ilmiy yondashish va axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantiruvchi muhim pedagogik omildir. Shu sababli kimyo o‘qituvchilarining raqamli kompetentligini rivojlantirish, ularni zamonaviy elektron platformalar bilan ishlashga o‘rgatish hamda fan mazmuniga mos raqamli resurslar yaratish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Kimyo fani o‘qituvchilari uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha qisqa muddatli amaliy o‘quv kurslari va malaka oshirish seminarlarini tizimli tashkil etish maqsadga muvofiq.

Kimyo faniga oid mavzular bo‘yicha virtual laboratoriyalar, 3D modellar, interaktiv topshiriqlar, videodarslar va elektron testlar bazasini shakllantirish zarur.

Ta’lim muassasalarida LMS platformalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ularda kimyo faniga mos elektron kurslar, mustaqil ta’lim topshiriqlari va baholash mezonlarini joylashtirish lozim.

Kimyo darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha metodik qo‘llanmalar, tavsiyalar va namunaviy dars ishlanmalarini ishlab chiqish zarur.

O‘qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish bilan birga, ularning pedagogik va metodik kompetentligini ham rivojlantirish lozim, chunki raqamli

vositalardan samarali foydalanish fan mazmuni, metodika va texnologiyaning uyg‘unligiga bog‘liq.

Maktab va oliy ta’lim muassasalarida internet sifati, kompyuter texnikasi, interaktiv doskalar, proyektorlar va boshqa zarur texnik vositalar bilan ta’minlash darajasini yaxshilash talab etiladi.

Kimyo fanini o‘qitishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash samaradorligini muntazam monitoring qilish, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi, faolligi va mustaqil ishlash ko‘nikmalariga ta’sirini tahlil qilib borish kerak.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarini raqamli ta’lim muhitida ishlashga tayyorlash, ularda elektron resurs yaratish, virtual laboratoriyalardan foydalanish va onlayn baholash ko‘nikmalarini shakllantirish lozim.

Umuman olganda, kimyo fanida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish o‘qituvchi faoliyatini yengillashtiradi, darslarning ko‘rgazmaliligini oshiradi, o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi hamda ta’lim jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etishga xizmat qiladi. Shu bois raqamli texnologiyalarni kimyo ta’limiga bosqichma-bosqich, tizimli va metodik asoslangan holda joriy etish bugungi kunning muhim pedagogik vazifalaridan biridir.

Adabiyotlar

1. 1. Prezident Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. (28.12.2018y.)
2. Botirova S.R. Bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining innovatsion tadqiqot faoliyatiga tayyorgarligini shakllantirish metodikasi // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand, 2024. – 47 b.
3. Haydarova Ch.K. Polimerlar kimyosi fanidan 3D texnologiyalar asosida interaktiv qo‘llanma yaratish // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand, 2025. – 49 b.

4. Rahmatullayev N.G‘., Omonov H.T., Mirkomilov Sh.M. Kimyo o‘qitish metodikasi // O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2013. – 320 b.

5. Alimov R.X. Axborot texnologiyalari va tizimlari // O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2011. – 36 b.

6. Miraximov A.R., Raxmonqulova S.I. Internet va undan foydalanish asoslari // O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2001. – 38 b.

7. Ixtiyarova G.A., Haydarova Ch.K., Axadov M.Sh., Ishmanova Z.U. Kimyo fanida zamonaviy ta’limning innovatsion shakllari // Pedagogik mahorat ilmiy-nazariy va metodik jurnal. – Buxoro, 2021. – №2. – B. 201–204.

8. Haydarova Ch.K. Umumiy kimyo fanidan kompyuter animatsiyasiga asoslangan o‘quv adabiyotlarini yaratish metodikasi // O‘zMU xabarlar. – Toshkent, 2022. – №1/8. – B. 176–179.

9. Ixtiyarova G.A., Haydarova Ch.K. Umumiy va noorganik kimyo fanidan multimediali elektron darsliklar yaratish va undan foydalanish metodikasi // Ta’limda uzluksiz kasbiy rivojlanishning jamiyat taraqqiyotidagi roli mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Qarshi, 2022. – B. 19–21.

10. Mishra P., Koehler M.J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // Teachers College Record. – 2006. – Vol. 108, №6. – P. 1017–1054.

11. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu // Joint Research Centre Science for Policy Report. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. – 95 p.

12. Tatli Z., Ayas A. Effect of a Virtual Chemistry Laboratory on Students’ Achievement // Educational Technology & Society. – 2013. – Vol. 16, №1. – P. 159–170.

Tabiiy fanlarda axborot texnologiyalari

OLIIY TA’LIM MUASSASALARIDA BIOLOGIYA FANLARIDAN LABORATORIYA MASHG’ULOTLARNI RAQAMLI TA’LIM VOSITALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH USULI

Baxodirova Umida Baxodirovna

Navoiy davlat universiteti, dotsent, p.f.f.d. O‘zbekiston

Elektron pochta: baxodirovau@gmail.com

ORCID: 0009-0004-0470-3077

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida biologiya fanlaridan laboratoriya mashg’ulotlarni olib borish masalalari tahlil etilgan. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida biologiya fanlaridan laboratoriya mashg’ulotlarni virtual laboratoriyalar asosida tashkil etish tuzilmasi keltirilgan. Shu bilan birga mazkur maqolada tadqiqot doirasida taklif etilgan tuzilmani samaradorligini aniqlash bo‘yicha pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borilgan va uning samaradorlik darajasi Styudent-Fisher kriteriyasidan foydalanib isbotlangan.

Tayanch so‘zlar: virtual laboratoriya, tuzilma, axborot-ta’lim muhiti, multimodal vositalar, dasturlashtirilgan ta’lim texnologiyasi, tajriba-sinov, Styudent-Fisher.

МЕТОД ОРГАНИЗАЦИИ ЛАБОРАТОРНЫХ ЗАНЯТИЙ ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ ДИСЦИПЛИНАМ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ

Бахадирова Умида Бахадировна

Навоийский государственный педагогический университет, доцент, Узбекистан

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы проведения лабораторных занятий по биологическим дисциплинам в высших учебных заведениях. Также представлена структура организации лабораторных занятий по биологическим дисциплинам на основе виртуальных лабораторий. Кроме того, в рамках исследования проведена педагогическая опытно-экспериментальная работа по оценке эффективности предложенной структуры, и её уровень подтверждён с использованием критерия Стьюдента–Фишера.

Ключевые слова: виртуальная лаборатория, структура, информационно-образовательная среда, мультимодальные средства, технология программированного обучения, педагогический эксперимент, критерий Стьюдента–Фишера..

METHOD FOR ORGANIZING LABORATORY SESSIONS IN BIOLOGICAL SCIENCES AT HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS BASED ON DIGITAL EDUCATIONAL TOOLS

Bakhodirova Umida

Navoi State Pedagogical University, Associate Professor, Uzbekistan

Abstract: This article analyzes the issues of conducting laboratory sessions in biological sciences at higher education institutions. It also presents a framework for organizing laboratory sessions in biological sciences based on virtual laboratories. In addition, within the scope of the study, pedagogical experimental research was conducted to evaluate the effectiveness of the proposed framework, and its effectiveness was verified using the Student–Fisher criterion.

Keywords virtual laboratory, structure, information-educational environment, multimodal tools, programmed learning technology, pedagogical experiment, Student–Fisher criterion.

Kirish. Bugungi kunda laboratoriya ishlarini olib borishning an’anaviy usullari – qo‘zg‘almas obyektlar, mikroskopik uskunalar, tajriba va kuzatish bilan bir qatorda, kompyuter texnologiyalaridan ham foydalanib kelinmoqda [1-4]. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari oliy ta’lim muassasalarida biologiya fanlari bo‘yicha laboratoriya ishlarini tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi, o‘rganish sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi, uni yanada interaktiv va vizual shaklda olib borish imkonini beradi [5, 6]. Kompyuter texnologiyalar, shu jumladan virtual laboratoriyalar asosida olib boriladigan mashg‘ulotlar talabalarga biologik tushunchalarni chuqurroq tushunish va yaxshiroq o‘zlashtirish, tadqiqot ko‘nikmalarini va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi.

Virtual laboratoriya ishi zamonaviy kompyuter texnologiyalari uchun amaliy variant hisoblanadi [6]. Virtual interaktiv laboratoriyalar haqiqiy tajribalar o‘tkazish illyuziyasini yaratadi, talabalarga harakatlar erkinligi va xato qilish imkoniyatini beradi. Bu tadqiqot, ma’lumotlarni tahlil qilish va xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bunday laboratoriyalar, ayniqsa, pedagogika oliy ta’lim muassasalari yoki maktabining uskunalari (energiya almashinuvi, mitoz, meyozi, oqsil biosintezi va boshqalar) yordamida real sharoitlarda ko‘paytirish qiyin yoki imkonsiz bo‘lgan murakkab biologik jarayonlarni o‘rganish uchun samarali hisoblanadi. Virtual laboratoriyalar – bu tajribalar o‘tkazish va ma’lumotlarni onlayn tahlil qilish uchun uskunalar va dasturiy ta’minot to‘plamlaridan iborat hisoblanadi [5]. Biologik jarayonlarni modellashtirish uchun kompyuter dasturlari mikroskopik hodisalar va murakkab biologik jarayonlarni namoyish etib, tajribalarni kompyuter ekranida ko‘paytirish imkonini beradi. Shuningdek, virtual laboratoriyalardan foydalanish quyidagi xususiyatlarga ega [7, 8, 9, 10, 11]:

- xavfsizlik: virtual laboratoriyalar talabalarga o‘zlarini xavf ostiga qo‘ymasdan xavfli tajribalar o‘tkazish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, kimyoviy reaksiyalar, radioaktiv materiallar yoki biologik namunalar bilan ishlashda samarali hisoblanadi;

- resurslarni tejash: virtual laboratoriyalar uskunalari, reagentlar va texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlarini kamaytiradi, bu esa ta’limni yanada qulay va ekologik jihatdan muhim sanaladi;

- moslashuvchanlik va masshtablashuvchanlik: virtual laboratoriyalar istalgan vaqtda va istalgan qurilmadan ta’lim resurslariga kirish imkonini beradi, bu esa talabalarga o‘z sur‘atlarida o‘rganish imkonini beradi;


- ta’lim olishni shaxsiylashtirish: virtual laboratoriyalar har bir talabaning ehtiyojlariga, ularning kelib chiqishi va afzalliklarini hisobga olgan holda moslashtirish imkonini beradi;

- fanlararo: virtual laboratoriyalar turli ilmiy fanlardan bilimlarni integratsiyalashni soddalashtiradi, talabalarga turli hodisalar va tushunchalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rishga yordam beradi.

Virtual laboratoriyalarning keltirilgan imkoniyatlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda oliy ta’lim muassasalarida biologiya fanlaridan laboratoriya mashg‘ulotlarni olib borish usulini ishlab chiqishni taqozo etadi. Buning uchun dastlab sohaga oid olimlarning ishlarini o‘rganishni taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili. Bu borada O.V.Leshkova [1], K.A.Lunyov [1], A.V.Truxin [2], Ye.I.Nikulina [3], Ye.B.Starichenko [3], D.M.Voronin [4], T.K.Konstantinyan [5], O.V.Shtirlina [6], R.Raghu [7], A.Krishnashree [7], K.N.Vinith [7], N.Prema [7], A.V.Truxin [8], Ye.Ye.Fomicheva [9], Ye.O.Kozlovskiy [10], G.M. Kravsov [10], G.V.Sharapova [11] kabi olimlar tomonidan tadqiqot ishlarini olib borilgan. Ushbu olimlarning ishlarida oliy ta’lim muassasalari ta’lim va tarbiya jarayoniga virtual laboratoriyalardan foydalanishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Biroq, ularning ishlarida oliy ta’lim muassasalarida biologiya fanlaridan laboratoriya mashg‘ulotlarini olib borish masalalari yetarlicha o‘rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida biologiya fanlaridan laboratoriya mashg‘ulotlarini olib borishda virtual laboratoriyalardan foydalanish tuzilmasi keltirilgan (1-rasmga qarang).



1-rasm. Laboratoriya mashg‘ulotlarni tashkil etish tuzilmasi

Ushbu tuzilma asosida oliy ta’lim muassasalarida biologiya fanlaridan laboratoriya mashg‘ulotlarni olib borish uchun pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borildi.


Tahlil va natijalar. Tadqiqot oliy ta’lim muassasalarida biologiya fanlaridan laboratoriya mashg‘ulotlarini virtual laboratoriyalar asosida tashkil etish uchun ishlab chiqilgan tuzilmani samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba sinov ishlarini olib borishda “Biologiya” ta’lim yo‘nalishi talabalari jalb etilib, ular tajriba va nazorat guruhlariga ajratilib, ularning bilimlari baholandi. Baholash natijasiga ko‘ra, tajriba va nazorat guruhlariga ajarailgan talabalarning natijalari bir xil ekanligi ma’lum bo‘ldi. Ularning natijalari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Talabalarning tajriba boshidagi ko‘rsatkichlari

Guruhlar	A‘lo	Yaxshi	Qoniqarli	Qoniqarsiz
Nazorat guruhi	5	24	20	4
Tajriba guruhi	6	22	23	3

Ushbu 1-jadvaldan foydalanib talabalarning o‘zlashtirish dinamikasini hosil qilamiz (2-rasmga qarang).



2-rasm. Talabalarning tajriba boshidagi o‘zlashtirish dinamikasi


Tajriba guruhiga ajratilgan talabalarga tadqiqot doirasida taklif etilayotgan tuzilma va bosqichlar asosida mashg‘ulotlar olib borildi. Nazorat guruhiga ushbu imkoniyat berilmadi. Talabalarning tajriba yakunidagi natijalari quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval.

Talabalarning tajriba oxiridagi ko‘rsatkichlari

Guruhlar	A’lo	Yaxshi	Qoniqarli	Qoniqarsiz
Nazorat guruhi	10	33	10	0
Tajriba guruhi	6	21	23	4

2-jadvaldagi talabalarning natijalarini o‘zlashtirish dinamikasini hosil qilamiz (3-rasmga qarang).



3-rasm. Talabalarning tajriba oxiridagi o‘zlashtirish dinamikasi

Tajriba-sinovi yakunida olingan sonli ma’lumotlar Styudent-Fisher kriteriyasi asosida matematik-statistik tahlil etildi. Bunda quyidagi formulalardan foydalanildi (3-jadvalga qarang).

3-jadval.

Hisoblash formulalari

1.	Mos o‘rta qiymatlar	$\bar{X} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^4 n_i X_i$
2.	Tarqoqlik koeffitsiyentlari	$D_n = \sum_{i=1}^4 \frac{n_i (x_i - \bar{X})^2}{n - 1}$

Hisoblash natijalariga ko‘ra, tajriba guruhining o‘zlashtirish ko‘rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan 11,6 % ga oshganligi ma’lum bo‘ldi.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, virtual laboratoriyalar oliy ta’lim muassasalarida biologiya fanlaridan laboaratoriya mashg‘ulotlarni olib borishda zamoaviy pedagogik texnologiya bo‘lib xizmat qiladi. Texnologiyaning jadal rivojlanishi va ta’limning doimiy o‘zgarib borayotgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda, virtual laboratoriyalar talabalarga 21-asrda zarur bo‘ladigan bilim va tajribani olish uchun eng yaxshi imkoniyatlarni taqdim etish uchun rivojlanishda va moslashishda davom etadi. Shuning uchun oliy ta’lim muassasalari biologiya ta’lim va tarbiya jarayonida virtual laboratoriyalardan foydalanish lozim. Biologiya ta’limiga virtual laboratoriyalarni joriy etish orqali talabalarning mustaqil ravishda bir necha bor virtual ravishda tajribalar o‘tkazish orqali haqiqiy laboratoriyalar o‘tkazish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalari hosil bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Лешкова О.В., Лунёв К.А. Спользование виртуальных лабораторий для изучения естественных наук // Международный научный журнал «инновационная наука». – № 5-2 / 2023. – С. 41-44.

2. Трухин А.В. «Об использовании виртуальных лабораторий в образовании» // Открытое и дистанционное образование. – 2002. – № 4 (8).

3. Никулина Е.И., Стариченко Е.Б. Виртуальные образовательные лаборатории: принципы и возможности. Педагогическое образование в России. 2016. – № 7. – С. 45-52.

4. Воронин, Д.М. Обзор цифровых образовательных ресурсов для учителей биологии / Д.М. Воронин, О.В. Хотулёва, Г.В. Егорова // Проблемы

современного педагогического образования. – Ялта. – 2021. – № 72(1). – С. 60-63

5. Константиныч Т.К. Виртуальные лаборатории LabVIEW для обучения информатике будущих учителей химии и биологии / Т.К. Константиныч // Вестник Московского городского педагогического университета. Серия: «Информатика и информатизация образования». – 2011. – № 1(21). – 2011. – С. 119-122

6. Штырлина О.В. Использование инновационных компьютерных технологий при изучении биологических наук в школе и педагогическом вузе / Щ.В. Штырлина, Д.А. Штырлин // Инновации в науке. Материалы XXI Международной научно-практической конференции. – Новосибирск – 2013. – С. 57-63.

7. Raghu R. Krishnashree A., Vinith K. N., Prema N. Virtual Laboratories a historical review and bibliometric analysis of the past three decades // Education and Information Technologies. 2022. Vol. 27, № 8. P. 11055–11087. doi: 10.1007/s10639-022-11058-9

8. Трухин А. В. Об использовании виртуальных лабораторий в образовании // Открытое и дистанционное образование. 2002. № 4 (8). С. 81–82.

9. Фомичева Е. Е. Виртуальные лабораторные работы в дистанционном обучении физике // Мир науки, культуры, образования. 2022. № 1 (92). С. 65–69. 28.

10. Козловский Е. О., Кравцов Г. М. Мультимедийная виртуальная лаборатория по физике в системе дистанционного обучения. Proceedings of the 5th Workshop on Cloud Technologies in Education Kryvyi Rih, Ukraine, April 28, 2017. С. 42–53.

11. Шарапова Г.В. Иммунология фанини ўқитиш самарадорлигини оширишда электрон таълим ресурслардан фойдаланиш методикасини такомиллаштириш (педагогика олий таълим муассасалари мисолида) // Педагогика фанлари

бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Тошкент, 2022. – 153 б.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarda axborot texnologiyalari

TALABALARNING SUN’IY INTELLEKT VOSITALARIGA BO‘LGAN QARAMLILIGINI OLDINI OLISH MUAMMOLARI

Abayev Nurliboy Asat o‘g‘li

Navoiy davlat universiteti, O‘zbekiston

Elektron pochta: nurliboy2018@gmail.com

ORCID: 0009-0008-3338-6583

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalari ta’lim va tarbiya jarayoniga sun’iy intellektni joriy etish masalalri tahlil etilgan. Shuningdek, talabalarga sun’iy intellektni salbiy ta’siri keltirib o‘tilgan hamda uni bartaraf etishga doir taklif va tavsiyalar berib o‘tilgan.

Tayanch so‘zlar: sun’iy intellekt, model, GPTZero, intellekt texnologiya, tanqidiy yondashuv, global tarmoq.

ПРОБЛЕМЫ ПРОФИЛАКТИКИ ЗАВИСИМОСТИ СТУДЕНТОВ ОТ ИНСТРУМЕНТОВ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Абаев Нурлыбай

Навоийский государственный педагогический университет, Узбекистан

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы внедрения искусственного интеллекта в учебно-воспитательный процесс высших учебных заведений. Также рассматривается негативное влияние искусственного интеллекта на студентов и приводятся предложения и рекомендации по его устранению.

Ключевые слова: искусственный интеллект, модель, GPTZero, интеллектуальные технологии, критический подход, глобальная сеть.

CHALLENGES IN PREVENTING STUDENT DEPENDENCE ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE TOOLS

Abaev Nurlybay

Navoi State Pedagogical University, Uzbekistan

Abstract: This article analyzes the issues surrounding the integration of artificial intelligence into the educational process of higher education institutions. It also examines the negative impact of artificial intelligence on students and offers proposals and recommendations for its mitigation.

Keywords artificial intelligence, model, GPTZero, intelligent technologies, critical approach, global network.

Kirish. Sun’iy intellektning rivojlanishi postindustrial dunyoda sezilarli va qaytarib bo‘lmaydigan texnokratik tendentsiyalardan biri bo‘lib qolmoqda. Darhaqiqat, bugungi kunda barcha sohalar qatorid oliy ta’lim muassasalari ta’lim va tarbiya jarayonida sun’iy intellektidan keng ko‘lamda foydalanib kelinmoqda [1, 2, 3, 4, 5]. Oliy ta’lim muassasalari ta’lim va tarbiya jaayoniga sun’iy intellektning joriy

etilishida maqsad talabalarning ta’lim olishini oshirish va ularning bilimni baholashni optimallashtirishdan iborat hisoblanadi.

Oliy ta’lim muassasalarining ta’lim va tarbiya jarayonida sun’iy intellektni joriy etishda ijobiy natijalarga erishish bilan birga, bir muncha salbiy ta’sirlari ham sezilmoqda. Bu esa oliy ta’lim muassasalarining ta’lim va tarbiya jarayoniga sun’iy intellektni joriy etishda salbiy oqibatlarini o’rganishni taqozo etadi. Buni amalga oshirish uchun dastlab ushbu masalalarga oid olimlarning tadqiqotlarini o’rganishni taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili. Ta’lim va tarbiya jarayonida sun’iy intellektning qo’llash masalalari va sun’iy intellektning salbiy ta’siriga oid tadqiqotlar D.K.Mixail [1], H.Bastani [2], O.Bastani [2], A.Sungu [2], H.Ge [2], Ö.Kabakc [2], R.Mariman [2], V.V.Kyrma [3], E.O.Orlova [3], I.V.Rozmainsky [3], Q.Xia [4], X.Weng [4], F.Ouyang [4], T.J.Lin [4], Th.K.F.Chiu [4], J.A.Abalyan [5], S.V.Pivneva [5], I.A.Aleshkovskiy [6], A.T.Gasparishvili [6], N.P.Narbut [6], M.A.Galaguzova [7], I.N.Perekalskiy [7], D.I.Gurov [8], L.D.Ye.yeonov [8], G.M.Kirillov [8], Ye.N.Ivaxnenko [8], V.S.Nikolskiy [8], Ye.N.Ivaxnenko [9], V.S.Nikolskiy [9], A.V.Rezayev [10], N.D.Tregubova [10] kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu olimlarning tadqiqotlarida oliy ta’lim muassasalari ta’lim va tarbiya jarayoniga sun’iy intellektni ijobiy tomonlariga nisbatan, salbiy oqibatlari ko’pligini ta’kidlaganlar. Shuning uchun sun’iy intellektning talabalarga salbiy ta’sirini o’rganish asosida, uni yechimlarini ishlab chiqish muhim masalalardan biri sanaladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta’limda sun’iy intellektning tobora ommalashib borayotganining yana bir muhim omili – bu sun’iy intellekt vositalarining foydalanuvchining tajriba darajasiga moslashish qobiliyatidir [6]. Ko’pgina modellar ma’lumot taqdimoti formatini individual foydalanuvchiga moslashtirishi, real hayotdagi o’xshashliklardan foydalanishi va o’rganilayotgan mavzuning muayyan jihatlariga chuqurroq kirishishi mumkin [7]. Bu an’anaviy o’quv materiallariga nisbatan sezilarli afzallik bo’lib, ular ko’plab talabalar guruhi uchun universal tarzda

ishlab chiqilishi va yozilishi kerak [8]. Bu afzalliklar o‘quv jarayonida sun’iy intellektdan foydalanish talabalar bilimiga aniq ijobiy ta’sir ko‘rsatadi degan xayolni keltirib chiqarishi mumkin. Talaba ma’ruza yozuvlarini istalgan mashhur sun’iy intellekt yoqilgan ilovaga yuklashi mumkin va model noaniq parchalarni aniqlaydi, qo‘shimcha ma’lumot manbalarini ko‘rsatadi va ko‘pgina savollarga javob beradi [9]. Yoki, masalan, talabal mustaqil ta’lim topshirig‘ini bajarayotganda, yechimini professor-o‘qituvchiga topshirishdan oldin tekshirishi, xatolarni tuzatishi va muammoli sohalarni ta’kidlashi mumkin.

Biroq, generativ sun’iy intellektning ulkan mashhurligi uchun fundamental xavflar mavjud. Asosiysi, akademik ko‘rsatkichlarning va o‘quv dasturiga jalb qilinishning pasayishi. Ta’limda sun’iy intellektni tarqalishining xavf omillari. Bir nechta empirik tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellektdan foydalanish ko‘pincha uzoq muddatda akademik ko‘rsatkichlarning pasayishiga olib keladi.

Masalan, “Generativ sun’iy intellektdan foydalanish va imtihon natijalari” (2024) tadqiqotida ko‘p o‘zgaruvchan regressiya tahlili qo‘llanilgan bo‘lib, akademik muammolarni hal qilish uchun sun’iy intellektdan foydalanadigan talabalar boshqa talabalarga qaraganda imtihon balllarini pastroq olishlarini aniqladi [1]. Bu vaziyatning paradoksal tabiati shundaki, akademik ko‘rsatkichlarning pasayishi dastlab yuqori akademik salohiyatga ega bo‘lgan talabalarda kuzatiladi. Tadqiqotchilar bu natijalarni talabalarning topshiriqlarga aqliy jalb qilinishining pasayishi natijasida talqin qilishadi. Boshqacha qilib aytganda, iqtidorli talabalar mavzuni chuqurroq o‘rganish o‘rniga, o‘zlarining fikrlashlarini sun’iy intellektga topshiradilar, bu mavzu bo‘yicha yuzaki bilimlarni rivojlantiradilar. Talabalarning o‘qishida sun’iy intellektdan keng foydalanishning qo‘shimcha xavfi axborot va manbalarning ishonchliligini tekshirishga klassik tanqidiy yondashuvning asta-sekin yo‘q bo‘lib ketishidir.

An’anaga ko‘ra, axborot bilan ishlashda talabalar uning ishonchliligi uchun javobgarlikni o‘z zimmlariga oladilar. Masalan, qidiruv tizimlarida manbani tekshirish jarayoni qidiruv natijalarini resurslarning ishonchliligi va axborotning dolzarbligi asosida saralash orqali soddalashtirildi. Foydalanuvchilar turli manbalarni mustaqil ravishda taqqoslashdi va qaysi havolani bosish kerakligini aniqladilar.

Bugungi kunda ko‘plab sun’iy intellektga asoslangan ilovalarda muloqot “so‘rov-javob” formatida dialog sifatida amalga oshiriladi. Bu tanqidiy baholash va tekshirish bosqichini bartaraf etadi: model ekspert bilimlari taassurotini yetkazadigan izchil va ishonchli matnni yaratadi. Bu xatti-harakatlar model o‘z javobini to‘g‘ridan-to‘g‘ri faktlarni aniqlash o‘rniga ehtimoliy til modellashtirish asosida sintez qilishi bilan bog‘liq.

GPTZero ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilgi NeurIPS konferensiyasiga qabul qilingan 4841 ta maqolada 100 ta gallyutsinatsiya - mavjud bo‘lmagan ilmiy maqolalarga uydirma havolalar topilgan. Eng muhimi, ushbu maqolalar avtomatlashtirilgan tekshirish jarayonidan ham, qo‘lda ekspertlar tomonidan ko‘rib chiqishdan ham muvaffaqiyatli o‘tdi. Bu taqdimotning ishonchliligi va ekspert darajasidagi tabiati ma’lumotlarning ishonchliligiga urg‘u berishni kamaytirishga hissa qo‘shishini tasdiqlaydi [1]. Bu topilmalar ta’lim muhiti o‘zgarishni boshdan kechirayotganini tasdiqlaydi, bu esa o‘rganish yondashuvlariga yangicha e’tibor qaratish zarurligini anglatadi.

Tahlil va natija. Tahlillarga ko‘ra, oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning deyarli barchasi mustaqil ta’lim topshiriqlarini sun’iy interllektdan foydalanib bajarishi aniqlandi. Shu bois bugungi kunda ta’lim yondashuvlarini qayta ko‘rib chiqish muhim masalalardan biri sanaladi. Shuning uchun oliy ta’lim muassasalari ta’lim va tarbiya jarayonida an’anaviy ravishda qo‘llaniladigan shakl, usul va vositalarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Shuni yodda tutish keraki, sun’iy intellektdan foydalanishni butunlay taqiqlashga urinishlar samarasiz hisoblanadi: birinchidan, talabalar, yoshlar sifatida,

muqarrar ravishda global tarmoqdan kundalik hayotlarida foydalanadilar; ikkinchidan, oliy ta’lim muassasasining maqsadlaridan biri zamonaviy voqelikka moslashgan mutaxassislarni tayyorlashdir va sun’iy intellekt ko‘nikmalari ularning professional kompetentligini ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Shuning uchun, sun’iy intellektni ta’lim jarayoniga integratsiya qilishda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

1) talabalarga global tarmoqdan foydalanish madaniyatini oshirish: so‘rovlar yaratish, mavjud yechimlarni ko‘rib chiqish va ma’lumotlarni tekshirish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

2) sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnoma ishlab chiqish;

3) o‘quv topshiriqlari va baholash mezonlarini moslashtirish;

4) mustaqil o‘rganishni rag‘batlantirish.

Ta’lim jarayoniga generativ sun’iy intellekt bo‘yicha kurslarni joriy etish haqida gapirganda, biz vositalar bilan texnik mahorat haqida emas, balki javoblarni talqin qilish va mos modellarning qo‘llanilish chegaralarini baholash uchun mas’uliyatli yondashuvni ishlab chiqishdan iborat. Shu nuqtai nazardan, so‘rovlarni - takliflarni - yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirish ayniqsa muhimdir. Bu ko‘nikmalar yakuniy javob tegishli bo‘lishi uchun kontekst va cheklovlarni shakllantirish qobiliyatini talab qiladi.

Masalan, ITMO universitetining Kompyuter fanlari va dizayn fakulteti allaqachon shunga o‘xshash “Raqamli dizayndagi generativ texnologiyalar” kursini taklif qilmoqda, unda talabalar generativ modellarning ishlash tamoyillarini, ular orasidagi farqlarni va professional muammolarni hal qilish uchun odatiy so‘rovlarni o‘rganadilar. Olingan javoblarni tekshirishga alohida e’tibor qaratiladi: birlamchi manbalarga nisbatan qo‘shimcha ma’lumotlarni tekshirish va potentsial gallyutsinatsiyalarni aniqlash. Model talabaning o‘z fikrlashini almashtirmaydi, balki ularga professional muammolarni tezroq va samaraliroq hal qilish imkonini beruvchi qo‘shimcha vositaga aylanadi.

Qo‘shma Shtatlarda Yel universitetida professor-o‘qituvchilar o‘z kurslarida talabalar sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish-foydalanmasliklarini va qay darajada foydalanishlarini mustaqil ravishda hal qiladilar. Ushbu ruxsat Sun’iy intellekt bo‘yicha qo‘llanmada belgilangan. Biroq, qaror rasmiy bo‘lishi va talaba qaysi generativ neyron tarmog‘idan hamda qanday maqsadlarda foydalanishi mumkinligini ko‘rsatishi kerak [11]. Stenford universitetida qabul qilingan tegishli hujjatda talabalar generativ sun’iy intellekt yechimlaridan foydalanish huquqiga ega ekanligi, ammo faqat insoning yordami bilan (masalan, imtihon paytida neyron tarmog‘idan foydalanish taqiqlangan) aytilgan. Garvard biznes maktabi ham sun’iy intellektdan foydalanishga ruxsat beradi, lekin faqat mutanosib iqtibos keltirish sharti bilan [12]. Yaponiya generativ sun’iy intellektdan foydalanish taqiqlangan mamlakatga misol bo‘la oladi [1].

Ta’lim jarayonida talabalarning sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishining o‘sib borayotgan tendentsiyasiga moslashtirishning ikkinchi asosiy elementi – bu akademik topshiriqlarda sun’iy intellektdan foydalanish stsenariylarini o‘z ichiga olishi kerak bo‘lgan sun’iy intellekt yo‘riqnomasini ishlab chiqish va amalga oshirishdir. Bunday hujjat tomonlarning mas’uliyatini va mualliflik huquqini ham belgilaydi. Aniq qoidalarning yo‘qligi talabalar va professor-o‘qituvchilar o‘rtasida noaniqlikni keltirib chiqaradi va bu ikki guruh o‘rtasidagi ishonchni kamaytirishi hamda topshiriqlarni baholash paytida nizolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan nazariy tahlillar asosida aytish mumkinki, talabalarning sun’iy intellekt vositalariga bo‘lgan qaramliligini oldini olish uchun quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

- yangi raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan oliy ta’lim jarayonlarida generativ sun’iy intellekt (neyron tarmoqlari) ning mavjudligi va roli mahalliy darajada asta-sekin qabul qilinmoqda. Shuning uchun ushbu yechimlardan foydalanishning axloqiy tamoyillarini bayon qiluvchi ko‘rsatmalarni o‘z ichiga olgan qo‘llanmalar ishlab chiqish lozim;

- sun’iy intellekt taqdim eta oladigan natijalar va oqibatlarni baholash, shuningdek, u keltirib chiqaradigan muammolarga qarshi kurashish choralari bo’yicha turli xil ko’p qirrali strategiyalarni ishlab chiqish;

- funktsional sohaga xos siyosat va tavsiyalarni ishlab chiqish uchun oliy ta’lim muassasalari talabalari tomonidan neyron tarmoqlari va unga bog’liq sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishga doir madaniyatini rivojlantirish;

- ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan (generativ neyron tarmoqlari) foydalanish bo’yicha axloqiy ko’rsatmalar ishlab chiqish.

Xulosa va takliflar. Sun’iy intellektning kun sayn takomillashuvi tufayli shunchaki bilim olishdan talabalarning axborot qidirish va analitik fikrlash ko’nikmalarini rivojlantirishga (ularning o’qish sohasidan qat’i nazar) o’tishi kerak. Bunda professor-o’qituvchi bilim manbai emas, balki ustoz bo’lib, talabalarning generativ sun’iy intellekt vositalari bilan samarali va axloqiy jihatdan o’zaro ta’sir qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratish lozim.

Talabalar tomonidan sun’iy intellektdan keng foydalanish zamonaviy ta’lim muhitining obyektiv haqiqatidir. Bunday sharoitda oliy ta’lim muassasalari uchun asosiy vazifa ta’lim dasturlari va baholash usullarini yangi texnologik voqelikka moslashtirish uchun qayta loyihalashtirish muhim sanaladi. Taqiqlashlar o’rniga mustaqil fikrlashni va sun’iy intellektdan mas’uliyatli foydalanishni rivojlantirish uchun qoidalar va metodologik tavsiyalar ishlab chiqilishi kerak.

Adabiyotlar

1. Кучин М.Д. Влияние искусственного интеллекта на образовательный процесс в высших учебных заведениях // Общество: социология, психология, педагогика. 2026. № 2. С. 75–80. <https://doi.org/10.24158/spp.2026.2.10>.

2. Bastani, H., Bastani, O., Sungu, A., Ge, H., Kabakci, Ö. & Mariman, R. (2025) Generative AI without Guardrails Can Harm Learning: Evidence from High School Mathematics. Proceedings of the National Academy of Sciences of the

United States of America. 122 (26), e2422633122. Available from: doi:10.1073/pnas.2422633122.

3. Kyrma, V.V., Orlova, E.O. & Rozmainsky, I.V. (2025) Empirical Analysis of Cheating among Students from Different Universities. *Journal of Institutional Studies*. 17 (3), 136–156. Available from: doi:10.17835/2076-6297.2025.17.3.136-156. (In Russian)

4. Xia, Q., Weng, X., Ouyang, F., Lin, T.J., Chiu, Th.K.F. (2024) A Scoping Review on How Generative Artificial Intelligence Transforms Assessment in Higher Education. *International Journal of Educational Technology in Higher Education*. 21, article 40. Available from: doi:10.1186/s41239-024-00468-z.

5. Абалян, Ж. А., Пивнева, С. В. (2024). Потенциал и риски использования искусственного интеллекта в высшей школе при обучении иностранному языку в профессиональной сфере. *Международный научно-методический журнал «Мир науки, культуры, образования» (МНКО)*, 3(106), 5-7.

